



**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“KIMYO TEXNOLOGIYASINING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA ULARNING  
YECHIMLARI”**  
moduli bo'yicha

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent – 2023**



Mazkur o‘quv – uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagи 391 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:**

TDTU,“Sovutish va kriogen texnikasi”  
kafedrasи mudiri, t.f.d., professor  
Q.F.Karimov

**Taqrizchi:**

TDTU,“Sovutish va kriogen texnikasi”  
kafedrasи professori,t.f.d. S.G. Zakirov

O‘quv – uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2023 yil 27 sentyabrdagi 1 - sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

## **MUNDARIJA**

I.	Ishchi dastur.....	5
II.	Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari	11
III.	Nazariy materiallar .....	22
IV.	Amaliy mashg‘ulot materiallari.....	51
V.	Keyslar banki .....	68
VI.	Glossariy .....	73
VII.	Adabiyotlar ro‘yxati .....	74

## I. ISHCHI DASTUR

### Modulning maqsad va vazifalari

**Modulning maqsadi** – kimyo texnologiyasining dolzarb muammolari va ularning yechimlari, texnologik mashinalar va jihozlar yo‘nalishi fanlarini rivojlantirish masalalarining zamonaviy yechimlari va kimyo sanoati mahsulotlarini qayta ishlashdagi zamonaviy yechimlartopish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllatirishdan iborat.

#### Modulning vazifalari:

- kimyo texnologiyasining dolzarb muammolari va ularning yechimlarini topish;
- texnologik mashinalar va jihozlar yo‘nalishi fanlarini rivojlantirish masalalarining zamonaviy yechimlari ishlab chiqish;
- kimyo sanoati mahsulotlarini qayta ishlashdagi zamonaviy yechimlar ishlab chiqish.

### Modul bo‘yicha bilimlar, ko‘nikmalar, malakal va kompetensiylariga qo‘yiladigan talablar

**Kutilayotgan natijalar:** Tinglovchilar “Kimyo texnologiyasining dolzarb muammolari va ularning yechimlari” modulini o‘zlashtirish orqali quyidagi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar:

#### Tinglovchi:

- TMJ taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalari;
- TMJning zamonaviy texnikasi va texnologiyasi;
  - xorijiy mamlakatlarda TMJdan samarali foydalanish tajribasi;
- TMJdagi ekologik muammolari;
- TMJ ni hisoblashning zamonaviy usullari;
- TMJni avtomatlashtirishda asosiy rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha **bilimlarni egallashi**;
- TMJ maxsulotlari miqdor va sifatini o‘lchashining zamonoviy usullardan foydalanish;
  - texnologik jarayonlar va qurilmalarni tahlil qilish;
  - TMJni loyihalash;
  - “TMJ ” yo‘nalishi fanlarining o‘ziga xos jihatlarini izohlash **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi;
    - kimyo, neft va gaz, oziq-ovqat sanoati; sovitish va payvandlash texnikasini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasini ta’lim jarayoniga tatbiq etish;
    - xorij mamlakatlar kimyo, neft va gaz, oziq - ovqat sanoati, sovitish va payvandlash texnikasining ravojlanishini tahlil qilish hamda ularning yutuq-kamchiliklariga munosabat bildirgan holda ta’lim jarayonida foydalanish **kompetensiylarini** egallashi zarur.

### Modulning oliy ta’limdagi o‘rnii

Ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ayniqsa, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezda o‘sishi “Kimyo texnologiyasining dolzarb muammolari va ularning yechimlari” modulining oliv ta’limdagi o‘rnida ham aks etmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni o‘zlashtirish va o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llash haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga asoslanganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

### **Modul birliklari bo‘yicha soatlar taqsimoti**

	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>			
		<b>Jami</b>	<b>Nazary</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>	<b>Ko‘chma mashg‘ulot</b>
1.	<b>Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirish yo‘nalishlari.</b> Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirish yo‘nalishlari: ishlab chiqarish texnologiyasi yo‘nalishida; pedagogik texnologiyalar yo‘nalishida; o‘qish jarayonini tashkil qilish yo‘nalishida; ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish va tatbiq qilish; fanning muammoli masalalarini o‘rganish.	2	2		
2.	<b>Texnologik mashinalar va jihozlar yo‘nalishi fanlarini rivojlantirish masalalarining zamonaviy yechimlari.</b> Ishlab chiqarish korxonalarining dolzarb texnik va texnologik muammolari. Muammoni hal qilishning texnologik jarayonlarni jadallashtirish usuli. Yangi texnologiyalarni jalg‘etish.	4	2	2	
3.	<b>Kimyo sanoatida mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi zamonaviy yechimlar.</b> Havo ajratish texnologiyasida past bosim qurilmalarini qo‘llanishi. Karbonat angidrid sovutish mashinalarining qo‘llanilishi, ekspluatatsiyasi. Past bosim havo ajratish qurilmasining prinsipial sxemasini tuzish, ish siklini holat diagrammasida qurish. Qurilma unumdorligini hisoblash. Karbonat angidrid gazida ishlovchi sovutish mashinasining prinsipial sxemasini tuzish. Mashina issiqlik hisobini bajarish.	9	2	4	3

4.	<b>Apparatlar samaradorligini oshirish.</b> Issiqlik almashinishni jadallashtirish. Absorsbion, rektifikatsiya kolonna apparatlari samaradorligini oshirish.	7	2	2	3
<b>Jami:</b>		<b>22</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>6</b>

## NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

### **1-mavzu: Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirish yo‘nalishlari.**

Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirish yo‘nalishlari: ishlab chiqarish texnologiyasi yo‘nalishida; pedagogik texnologiyalar yo‘nalishida; o‘qish jarayonini tashkil qilish yo‘nalishida; ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish va tatbiq qilish; fanning muammoli masalalarini o‘rganish.

### **2-mavzu: Texnologik mashinalar va jihozlar yo‘nalishi fanlarini rivojlantirish masalalarining zamonaviy yechimlari.**

Ishlab chiqarish korxonalarining dolzarb texnik va texnologik muammolari. Muammoni hal qilishning texnologik jarayonlarni jadallashtirish usuli. Yangi texnologiyalarni jalb etish.

### **3-mavzu: Kimyo sanoatida mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi zamonaviy yechimlar.**

Havo ajratish texnologiyasida past bosim qurilmalarini qo‘llanishi. Karbonat angidrid sovutish mashinalarining qo‘llanilishi, ekspluatatsiyasi.  
Past bosim havo ajratish qurilmasining prinsipial sxemasini tuzish, ish siklini holat diagrammasida qurish. Qurilma unumdarligini hisoblash.

Karbonat angidrid gazida ishlovchi sovutish mashinasining prinsipial sxemasini tuzish. Mashina issiqlik hisobini bajarish.

### **4-mavzu. Apparatlar samaradorligini oshirish.**

Issiqlik almashinishni jadallashtirish. Absorsion, rektifikatsiya kolonna apparatlari samaradorligini oshirish.

## AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

**1-amaliy mashg‘ulot. O‘qish jarayonini tashkil qilishda o‘quv rejalarini tuzish.**

**2-amaliy mashg‘ulot.** Past bosim havo ajratish qurilmasining prinsipial sxemasini tuzish, ish siklini holat diagrammasida qurish. Qurilma unumdarligini hisoblash.

**3-amaliy mashg‘ulot.** Karbonat angidrid gazida ishlovchi sovutish mashinasining prinsipial sxemasini tuzish. Mashina issiqlik hisobini bajarish.

**4-amaliy mashg‘ulot.** Yog‘ni ekstraksiyalash texnologiyasida sovutish tizimining hisobi. Sovutish unumdarligini aniqlash, sovutish mashinasini tanlash.

**5-amaliy mashg‘ulot.** Samarador issiqlik almashinish apparatlarini hisoblash va konstruksiyalash.

**6-amaliy mashg‘ulot.** Samarador kolonna apparatlarini hisoblash va konstruksiyalash.

**7-amaliy mashg‘ulot.** Samaradorlikni ifodalovchi kattaliklar. Bunday kattaliklarni

tanlash va ishlatish.

## KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**Mavzu: Texnologik mashinalar va jihozlar yo‘nalishi fanlarini rivojlantirish masalalarining zamonaviy yechimlari.**

Ko‘chma mashg‘ulotda tinglovchilarni “Jixoz ventilyatsiya” MCHJ ga olib borish ko‘zda tutilgan. Mavzu yuzasidan yangi texnika texnologiyalar va amaliy ishlarni bajarish rejalashtirilgan.

### O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruza;
- amaliy mashg‘ulot.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko’ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

### Dasturning informasion-metodik ta’minoti

Fanni o‘qitish jarayonida zamonaviy metodlarni, pedagogik va axborot texnologiyalarni ko‘llashni:

- fanning barcha ma’ruzalari bo‘yicha zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida multimediyali taqdimot tayyorlashni;
- amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik va axborot-komunikasiya texnologiyalaridan keng foydalanishni;
- tinglovchilarning ilg‘or tajribalarni o‘rganishni va ommalashtirishni nazarda tutadi.

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10-fevraldagagi 20-sun qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” Nizomi mavjud. Ammo, mamlaktimizda o‘tkazilayotgan islohatlar OTMda chuqur kasbiy

bilimlarga, ilmiy yutuqlarga, ijodiy, ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyat va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida mutaxassislar tayyorlash bilan shug‘ullanishga munosib malakali pedagog kadrlarni tanlash uslubini yaratishni ham talab etmoqda. Bu borada ma’lum ishlar mutaxassislar tomonidan olib borilmoqda. Biz ham ushbu bitiruv ishi ko‘lamida o‘z takliflarimizni berishni lozim ko‘rdik.

6-jadvalda pedagog xodimlar faoliyatini baholashning yuqorida eslatilgan nizomga asosan hozirgi vaqtdagi baholash parametrlari berilgan.

6-jadval

<b>Pedagog xodimlar faoliyatini baholash va natijalari haqidagi ma’lumotlarni taqdim etish bo‘yicha Yo‘riqnomalar</b>		
<b>T/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Ball</b>
	<b>O‘quv-metodik faoliyati (40 ball)</b>	40
1	<b>O‘qituvchilik faoliyati (20 ball):</b>	20
1.1.	Nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikmalarni va o‘qitiladigai fanning zamonaviy tendensiyalarini egallaganlik darajasi (ochiq mashg‘ulotlar natijalari bo‘yicha).	8
1.2.	O‘qitish sifati darajasi (talabalardan so‘rab chiqish natijalari bo‘yicha).	5
1.3.	Talabalarning o‘qituvchining yo‘llanmasi (fani) bo‘yicha olimpiadalarda, har xil tanlovlardan va ilmiy grantlardagi ishtiroki.	7
2	<b>Metodik ishlar (20 ball):</b>	20
2.1.	Yil mobaynida oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi tomonidan nashr etilgan darsliklar va o‘kuv qo‘llanmalar.	8
2.2.	O‘qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalananish darajasi, o‘kuv kursini va o‘quv-taqdimot materiallarini ishlab chiqish.	7
2.3.	Uquv jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalari va talabalar bilimlarini baholashning ilg‘or usullari qo‘llanilishi darajasi.	5
	<b>Tarbiyaviy faoliyati (20 ball)</b>	20
3	Talabalar bilan tarbiyaviy ish bo‘yicha tadbirlarda ishtirok etish: ma’naviy-ma’rifiy ishlar, sport klublari, ilmiy, ijodiy to‘garaklar, madaniy tadbirlar va shu kabilalar.	5
4	Talabalarning akademik guruhlarida kuratorlik.	6
5	Talabalarning o‘qishdan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etishdagi ishtiroki.	5
6	Idora, mintaqa doirasida bajariladigan jamoatchilik ishlari va	4

	oliy ta'limdan tashqari ishlar.	
	<b>Ilmiy faoliyati (30 ball)</b>	30
7	Ilmiy konferetssiyalar ishida ishtirok etish.	5
8	Ilmiy nashrlarda (shu jumladan xorijiy ilmiy nashrlarda) materiallar, monografiyalar e'lon qilish.	5
9	Xalkaro, ilmiy loyihalarga, xo'jalik shartnomalariga raxbarlik qilish yoki ularda ishtirok etish.	5
10	Patentlar va ixtiolar.	5
11	Katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilarning dissertatsiya tadqiqotlariga ilmiy rahbarlik qilish.	5
12	Doktorlik dissertatsiyasi doirasida ilmiy tadqiqot olib borish.	5
	<b>Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirishga qo'shgan ulushi (10 ball)</b>	10
13	Boshqa ta'lim muassasalari: oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikni mustahkamlashda ishtirok etish (o'qituvchanlik faoliyati va ular uchun bilimlar darajasini oshirish treninglarini tashkil etish).	3
14	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan ayrboshlash dasturlarida ishtirok etish va ularni tashkil etish.	4
15.	Yangi yo'nalishni, yangi kafedrani, laboratoriyani ochish ishida, Axborot-resurs markazining elektron bazasini to'ldirishda ishtirok etish.	3
	<b>Shaxsiy fazilatlari (10 ball)</b>	10
16.	Ilmiy daraja va ilmiy unvon.	3
17.	Malaka oshirish kurslaridan o'tish.	2
18.	Xorijiy tillarni egallaganlik, materiallarni ishlab chiqish va fanni o'qitishda ulardan amalda foydalanish.	2
19.	Xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy muassaslarda stajirovkadan o'tish.	3
	<b>JAMI (eng ko'p ball - 110)</b>	110

Yuqoridagi jadvalda faoliyatning ajratib ko'rsatilgan turlari, ularga beriladigan ballar o'zgartirishni talab etishni anglatadi. Bu o'zgartirishlarni kafedra a'zolari – professor-dotsentlar va katta o'qituvchi-assistenlar bo'yicha alohida alohida ko'rib chiqamiz (7,8-jadvallar).

7-jadval

### Professorlar, dotsentlar faoliyatini baholash - KPI

T/r	Ko'rsatkichlar	Ball
	<b>O'quv-metodik faoliyati (30 ball)</b>	40
1	<b>O'qituvchilik faoliyati (10 ball):</b>	10

1.1.	O‘qitish sifati darajasi (talabalardan so‘rab chiqish natijalari bo‘yicha).	5
1.2.	Talabalarning o‘qituvchining yo‘llanmasi (fani) bo‘yicha olimpiadalarda, har xil tanlovlar va ilmiy grantlardagi ishtiroki.	5
2	<b>Metodik ishlar (20 ball):</b>	20
2.1.	Yil mobaynida oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi tomonidan nashr etilgan darsliklar va o‘kuv qo‘llanmalari.	20
<b>Tarbiyaviy faoliyati (10 ball)</b>		10
3	Talabalar bilan tarbiyaviy ish bo‘yicha tadbirdorda ishtirok etish: ma’naviy-ma’rifiy ishlar, sport klublari, ilmiy, ijodiy to‘garaklar, madaniy tadbirdor va shu kabilar.	5
6	Idora, mintaqada doirasida bajariladigan jamoatchilik ishlari va oliy ta’limdan tashqari ishlar.	5
<b>Ilmiy faoliyati (50 ball)</b>		50
7	Ilmiy konferetssiyalar ishida ishtirok etish.	6
8	Ilmiy nashrlarda (shu jumladan xorijiy ilmiy nashrlarda) materiallar, monografiyalar e’lon qilish.	12
9	Xalkaro, ilmiy loyihalarga, xo‘jalik shartnomalariga raxbarlik qilish yoki ularda ishtirok etish.	12
10	Patentlar va ixtiolar.	10
11	Katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilarning dissertasiya tadqiqotlariga ilmiy rahbarlik qilish.	5
12	Doktorlik dissertasiyasi doirasida ilmiy tadqiqot olib borish.	5
<b>Oliy ta’lim muassasasini rivojlantirishga qo‘sghan ulushi (10 ball)</b>		10
13	Boshqa ta’lim muassasalari: oliy ta’lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikni mustahkamlashda ishtirok etish (o‘qituvchanlik faoliyati va ular uchun bilimlar darajasini oshirish treninglarini tashkil etish).	5
14	Xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan ayriboshlash dasturlarida ishtirok etish va ularni tashkil etish.	5
<b>JAMI (eng ko‘p ball - 100)</b>		100

8-jadval

### Katta o‘qituvchilar, assistentlar faoliyatini baholash - KPI

T/r	Ko‘rsatkichlar	Ball
<b>O‘quv-metodik faoliyati (30 ball)</b>		30
1	<b>O‘qituvchilik faoliyati (20 ball):</b>	15
1.1.	Nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikmalarini va o‘qitiladigai fanning zamonaviy tendensiyalarini egallaganlik darajasi (ochiq mashg‘ulotlar natijalari bo‘yicha).	5
1.2.	O‘qitish sifati darajasi (talabalardan so‘rab chiqish natijalari bo‘yicha).	5

1.3.	Talabalarning o‘qituvchining yo‘llanmasi (fani) bo‘yicha olimpiadalarda, har xil tanlovlar va ilmiy grantlardagi ishtiroki.	5
2	<b>Metodik ishlar (20 ball):</b>	15
2.1.	Yil mobaynida oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi tomonidan nashr etilgan o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar.	5
2.2.	O‘qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, o‘kuv kursini va o‘quv-taqdimot materiallarini ishlab chiqish.	5
2.3.	Uquv jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalari va talabalar bilimlarini baholashning ilg‘or usullari qo‘llanilishi darajasi.	5
<b>Tarbiyaviy faoliyati (20 ball)</b>		20
3	Talabalar bilan tarbiyaviy ish bo‘yicha tadbirlarda ishtirok etish: ma’naviy-ma’rifiy ishlar, sport klublari, ilmiy, ijodiy to‘garaklar, madaniy tadbirlar va shu kabilar.	10
6	Idora, mintqa doirasida bajariladigan jamoatchilik ishlari va oliy ta’limdan tashqari ishlar.	10
<b>Ilmiy faoliyati (30 ball)</b>		30
7	Ilmiy konferetssiyalar ishida ishtirok etish.	6
8	Ilmiy nashrlarda (shu jumladan xorijiy ilmiy nashrlarda) materiallar, monografiyalar e’lon qilish.	6
9	Xalkaro, ilmiy loyihalarga, xo‘jalik shartnomalariga raxbarlik qilish yoki ularda ishtirok etish.	6
10	Patentlar va ixtiolar.	6
12	Doktorlik dissertasiyasi doirasida ilmiy tadqiqot olib borish.	6
<b>Oliy ta’lim muassasasini rivojlantirishga qo’shgan ulushi (10 ball)</b>		10
13	Boshqa ta’lim muassasalari: oliy ta’lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikni mustahkamlashda ishtirok etish (o‘qituvchanlik faoliyati va ular uchun bilimlar darajasini oshirish treninglarini tashkil etish).	5
14	Xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan ayriboshlash dasturlarida ishtirok etish va ularni tashkil etish.	5
<b>Malaka oshirish va stajirovkalar (10 ball)</b>		10
17.	Malaka oshirish kurslaridan o‘tish.	4
19.	Xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy muassaslarda stajirovkadan o‘tish.	6
<b>JAMI (eng ko‘p ball - 100)</b>		100

Biz taklif qilayotgan baholash parametrлari mazmuni quyidagicha: avvalambor, baholashda professor-o‘qituvchilarni turi bo‘yicha ajratilgan, ya’ni fan doktori, professor va yosh assistent faoliyatini bitta shkala bo‘yicha baholash – metodik xatodir. Ikkinchidan, ayrim faoliyat turi, masalan, 18 punktdagi “Xorijiy tillarni egallaganlik, materiallarni ishlab chiqish va fanni o‘qitishda ulardan amalda

foydalanish” olib tashlandi. Bunga sabab ayrim faoliyat turlari bir necha marta baholanish hollari mavjud, masalan, 1.2 punktdagi “O‘qitish sifati darajasi (talabalardan so‘rab chiqish natijalari bo‘yicha)” faoliyat turi yuqorida ko‘rsatilgan 18 punktdagi faoliyatni qamrab oladi (6-jadval) va h.k.

---

---

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

### **1-MA`RUZA. TEXNOLOGIK MASHINALAR VA JIHOZLAR FANLARINI**

### **RIVOJLANTIRISH YO`NALISHLARI**

#### **Reja:**

1. Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirishning umumiyo`nalishlari
2. Ishlab chiqarish texnologiyasi yo`nalishi
3. O`qish jarayonini tashkil qilish yo`nalishi

**Tayanch so`z va atamalar:** fanlarni rivojlantirish; ishlab chiqarish muammolari; o`quv jarayonini tashkil qilish.

#### **1. Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirishning umumiyo`nalishlari**

Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirish yo`nalishlarini umumiyo`ko`rinishda quyidagicha belgilash mumkin: ishlab chiqarish texnologiyasi yo`nalishida; pedagogik texnologiyalar yo`nalishida; o`qish jarayonini tashkil qilish yo`nalishida. Bu ko`rsatilgan yo`nalishlar shartli bo`lib, uni boshqa jihatlar, ko`rsatgichlar boyicha ham yo`nalishlarga bo`lish mumkin. Ammo, barcha hollarda ham shuni alohida ta`kidlash zarurki, fanlar rivoji, barcha sohalarda ham, fan-texnika yutuqlari bilan bog`liq. Oliy o`quv yurtlari o`quv rejalarida sun`iy tarzda fanlarni, kurslarni tashkil qilishga yo`l qoymaslik darkor.

#### **2. Ishlab chiqarish texnologiyasi yo`nalishi**

Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirishning ishlab chiqarish texnologiyasi yo`nalishi, birinchidan, ilg`or texnologiyalarni o`rganish, tatbiq qilish qilishdan iborat. Masalan, kimyo ishlab chiqarish sanoatida kislород, azot va havoning boshqa komponentlarini olishning ilg`or usuli bu – past haroratda rektifikatsiya qilish usulidir, garchi boshqa usullar ham mavjud bo`lsada. Oziq-ovqat sanoatida, masalan, sutni qayta ishlashda sutni pasterizatsiya qilinishi anchadan beri ma`lum. Pasterizatsiya qilish sutning saqlanish muddatini 6-7 kunga yetkazadi. Hozirgi paytda ilg`or texnologiyalarni yaratilishi va qo`llanilishi qayta

ishlangan sutning saqlanish muddatini uzaytirdi va u 25-30 kunni tashkil qiladi. Meva va sabzavotlarni sovutib saqlash bilan birga inert gaz muhitida ushslash ularning saqlanish muddatini oshiribgina qolmay, balki dastlabki tovar ko'rinishini kam o'zgartiradi.

Fanni rivojlantirishning ishlab chiqarish texnologiyasi yo'nalishida, ikkinchidan, ishlab chiqarish va ilm-fandagi muammoli masalalarni o'rganishdir. Masalan, past haroratda rektifikatsiya qilish ilg'or usul bo'lisi bilan birga ko'p energiya sarflanish bilan ham xarakterlanadi. Bu usulda energiya sarflarini kamaytirish fanning dolzarb muammolaridandir. Tabiiy gazni qayta ishlashda uning tarkibidagi vodorod sulfidini ajratish muhim texnologik bosqichdir. Ana shu bosqichda ishlatiluvchi absorbentlar qator talablarga javob berishi zarur. Bu talablar, ko'pincha, qarama-qarshidir. Masalan, absorbent tanlovchanlik xususiyatiga ega bo'lism bilan birga kimyoviy inert ham bo'lisi zarur. Yoki, absorbent keng tarqalgan va arzon bo'lism bilan birga apparat materialiga nisbatan inert, atrof-muhitga zararsiz bo'lisi zarur. Shu kabi muammolar va ularning zamonaviy yechimlari fanni o'qitishda rejaga kiritilishi va doimiy ravishda ilm-fan, texnika taraqqiyotiga mos holda yangilanib borishi zarur.

### **3. O'qish jarayonini tashkil qilish yo'nalishi**

Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirishning o'qish jarayonini tashkil qilish yo'nalishi, birinchidan, o'quv rejaga mahsus fanlarni kiritishdan iborat. Bu ta`lim darajasiga qoyiladigan Davlat talablarida ko'rsatilganidek ta`limdagi izchillik va uzviylik tamoyillariga mos bo'lisi muhim. Masalan, ToshdTU "Sovutish va kriogen texnikasi" kafedrasida quyidagicha yo'l tutilgani maqsadga muvofiq bo'lган: "Texnolgik mashinalar va jihozlar" yo'nalishida "Termodinamika" fani 2-kursda o'qitiladi. Fanga ajratilgan soat miqdori (soat miqdorini kafedra belgilamagan) fanning "Termodinamik tahlil" bo'limini dasturga kiritish uchun yetarli emas. Termodinamik tahlil fanning yakuniy qismi bo'lib, uni bilish amaliyotda muhimdir. Shuning uchun "Termodinamik tahlil" bo'limi "Sovutish va kriogen texnikasi mashina hamda agregatlari" magistratura mutaxassislik o'quv rejasiga kiritilgan. Bu bilan

bakalavriatura va magistratura fanlari o'rtasidagi davomiylilik va uzviylik ta`minlangan. Shu bilan birga, fanlarni sun`iy hosil qilishdan qochilgan.

O'qish jarayonini tashkil etishda, ikkinchidan, yo'nalish fanlari soatlarini oshirish muhimdir. Bu yerda gap ixtisoslik fanlari haqida borayapti. O'quv rejaning hozirgi ko'rinishida, ko'p mutaxassislar fikricha, ixtisoslik fanlari soatlarining ulushi umumiy soatlarga nisbatan oz qiymatni tashkil etadi. Bunday holatni tayanch oliy o'quv yurtlari tajribali professor-o'qituvchilari OO'MT vazirligining Rivojlantirish instituti xodimlari bilan hamkorlikda ko'rib chiqishlari kerak. Shuni aytish kerakki, mamlakatimizda xorij ta'lim tizimini o'rganish, uning ilg'or g'oyalarini qo'llash davom etmoqda. Masalan, Toshkent axborot-texnologiyalari universitetida Janubiy Koreya ta'lim tizimining tajribasi qo'llanilyapti. Bu tajribaga ko'ra o'quv rejadagi 1-blok fanlarining (gumanitar fanlar blogi) ulushi kamaytirilgan, buning evaziga ixtisoslik fanlari soatlari oshirilgan. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida o'qishni tashkil etishdagi bunday yangilik o'zining ijobjiy mahsulini berganda mamlakatimizdagi boshqa OYulariga tatbiq etiladi.

Amaldagi o'quv rejalarida fanning nazariy va laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar soatlarini teng qilingan. Hatto amaliyot (laboratoriya) soatlarining ulushini nazariynikidan oshirishga ham ruhsat etilgani, albatta, yaxshidir. Chunki, injenerlik ishida nazariy bilimlar asosidagi ko'nikmalarni amalda qo'llash talabidan kelgusida talab etiladigan asosiy talabdir.

Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini o'qitishda e'tibor berilishi zarur bo'lган hollardan biri bu – o'qitishda zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta`minlanganlidir. Misol uchun, ToshdTU "Sovutish va kriogen texnikasi" kafedrasida ko'p yillar davomida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bunda ko'plab tadqiqot qurilmalari yaratilib, yig'ilib ular tadqiqot ishlaridan so'ng o'qish jarayonida ishlatalilgan. Bunday amaliyot o'qitish va tadqiqot ishlarining birligini ta`minlagan. Albatta, hozirgi paytda bunday amaliyotni qo'llash ham yetarli moddiy mablag'ni jalg etishni, ham kafedrada malakali injener-texnik xodimlar kontingentini talab qiladi.

E`tibor qaratilishi lozim bo`lgan jihatlardan yana zamonaviy o`qitish vositalari, multimedia, informatsion texnologiyalar mavjudligi va ulardan foydalanish; o`qitishga malakali mutaxassis va o`qituvchilarning jalb etilishi masalalaridir.

### **Nazorat savollari**

1. Texnologik mashinalar va jihozlar fanlarini rivojlantirishning qanday umumiy yo`nalishlari mavjud?
2. Kimyo sanoatida, sanoat gazlarini olishda qanday yangi texnologiyalarini bilasiz?
3. Oziq-ovqat sanoatida sut mahsulotlarini ishlab chiqarishning qanday yangi texnologiyalarini bilasiz?
4. Oziq-ovqat sanoatida mahsulotlarni saqlashning qanday yangi texnologiyalarini bilasiz?
5. Tabiiy gazni qayta ishslashda uning tarkibidagi vodorod sulfidini ajratish uchun qanday talablar bajarilishi kerak?
6. O`qish jarayonini tashkil qilishda “Texnolgik mashinalar va jihozlar” yo`nalishi “Termodinamika” fani bilan bog`liq qanday yechimga kelingan?

## **2-MA’RUZA. TEXNOLOGIK MASHINALAR VA JIHOZLAR YO’NALISHI FANLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARINING ZAMONAVIY YECHIMLARI**

### **Reja:**

1. Kimyo sanoatida sovuqlikning iste’moli.
2. Past temperaturalardagi kimyoviy reaksiyalar.
3. Sovuqlik qo’llanilishining asosiy sohalari.
4. Sintetik kauchuk ishlab chiqarish.

**Tayanch so’z va iboralar.** Sintetik kauchuk; uksus kislotasi; deparafinlash; kimyo sanoati.

Kimyo va kimyo texnologiyasida sovuqlik turli asosiy texnologik jarayonlarda ajralayotgan issqilikni olib ketish uchun ham, ayrim kimyoviy reaksiyalarni past temperaturada maqsadli o’tkazish uchun ham qo’llanililadi. Bundan tashqari, sovuqlik neft, gaz va kimyo sanoati sohalarida havoni

konditsiyalash qurilmalari ishini ta'minlash uchun keng qo'llaniladi. Havoni konditsiyalash sun'iy tola ishlab chiqarishda texnologik maqsadlar uchun keng qo'llaniladi.

Kimyo sanoatida kimyoviy mahsulotlar ayrim turlarini ishlab chiqarishda sovuqlikni qo'llanilish ko'hami 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval.


Kimyoviy mahsulot	Temperatura, K	Sovuqlik sarfi, ming. kJ/t
<b>Uksus kislotasi va uksus angidridi</b>	263	2500
<b>Metan xloroformi</b>		
– xlorlash usuli bilan olingani	223	1500
– metilenxloridni fotokimyoviy xlorlash usuli bilan olingani	223	1900
<b>Xlormetil</b>	293	4
<b>Trixloretilen</b>	228	46
<b>Kauchuk</b>		
– nayrit	258	7350
– ftorsilikonli	258	4300
<b>Metanol (rektifikat)</b>	258	34
<b>Kaprolaktin</b>		
– fenol usuli bilan olingani	257	8150
– anilin usuli bilan olingani	257	7400

Sovutish texnikasining rivojlanishi va takomillashishi kimyo va kimyo texnologiyasi sanoatida sovuqlikni kelgusida qo'llanilish imkonini yanada kengaytiradi.

**Past temperaturalardagi kimyoviy reaksiyalar.** Ma'lumki, ko'pgina kimyoviy reaksiyalarning tezligi temperatura ko'tarilishi bilan monoton oshib boradi. Bu bog'liqlik miqdoran Arrenus qonuni sifatida ma'lum. Molekulyar-kinetik nazariyaga asosan Arrenus qonuni to'la aniq talqingga ega. Temperatura pasayishi bilan molekulalar issiqlik harakati jadalligi kamayadi, shu tufayli ularning bir-biri bilan ta'sirlashuv imkoniyati kamayadi.

Ammo, bu qonuniyatdan istisno hollar ham mavjud: temperatura pasayishi bilan tezligi dastlab ortib, so'ngra kamayadigan kimyoviy reaksiyalar guruhi

mavjud; bunda reaksiya maksimal tezligi qator hollarda eritmaning muzlash temperaturaidan past temperaturaga to‘g‘ri keladi (1-rasm). 1-rasmdagi 1 egri chiziq muzlash temperaturasidan  $10 - 20$  °S past temperaturada maksimal reaksiya tezligiga ega bo‘lgan ayrim eritmalar kimyoviy reaksiya tezligi ortishini sifat jihatidan ifodalaydi. 2 egri chiziq bilan tezligi xarakterlanuvchi reaksiyalar mexanizmi quyidagicha.



1-rasm. Kimyoviy reaksiyalar tezligini temperaturaga bog‘liqligi

Eritmalar muzlash nuqtasidan  $10 - 20$  °S past temperaturalarda ular tarkibida molekulalar nisbiy harakatchanligi yuqori bo‘lgan, suyuq mikroqo‘sishimchalar deb yuritiluvchi, hududlar saqlanib qoladi. Bu mikroqo‘sishimchalarda erigan komponentlar konsentrasiyasi ortadi, to‘qnashuvlar soni ko‘payadi va reaksiya tezligi ortadi. Ayrim hollarda rekasiya tezligi kristallanishning boshlanish temperurasidan yuqori temperaturadagi reaksiya tezligiga nisbatan 1000 marotabaga ortadi.

Temperaturaning keyingi pasayishidagina suyuq mikroqo‘sishimchalar muzlaydi va reaksiya tezligi kamayadi. Past temperaturalar ayrim reaksiyalarni sekinlashtirsa, boshqalarini tezroq borishiga sabab bo‘ladi.

Past temperaturalarda kimyoviy sintez qilish o‘ta sof moddalar va yuqori sifatli mahsulotlarni olishning istiqbolli usullaridan biridir. Hozirgi paytda faqat yuqori sifatli polimerlar olish imkonini beruvchi past temperaturali polimerlash

apparatlari mavjud. Past temperaturalargacha (kriogen temperaturalarigacha) sovutilgan reagentlar kimyoviy reaksiyasining tezligini ularga nurlanish ta'sir etayotgan vaqtning o'zida anchaga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Bu hol past temperaturali reaksiyalar sababli kosmosda organik modda yuzaga kelish ehtimoli borligini ko'rsatadi. Gipotezaning asosi Borliq massasining anchagina qismi sovuq gazlarda – temperaturasi  $-100^{\circ}\text{S}$  dan past kosmik chang bulutlarida yig'ilganidir. Bu moddalarda  $\text{SO}_2$ ,  $\text{SO}$ ,  $\text{SN}_4\text{NH}_3$  kabi kimyoviy moddalar bor. Kosmos kengliklarida katta energiya nurlanishlari sodir bo'lar ekan, turli kriokimyoviy o'zgarishlarni kutish mumkin. Shunday taxminlar ham borki, kosmosda paydo bo'luvchi organik moddalar Borliqda hayot tug'ilishiga asos bo'ladi.

Demak, barcha tiriklikning konservanti bo'lmish sovuqlik organik hayot vujudga kelishining zaruriy shartlaridan biri bo'lishi mumkin ekan. Organik hayot biz tomondan uzlucksiz kuzatiladi va biz uning bir qismimiz.

**Sovuqlik qo'llanilishining asosiy sohalari.** Sovuqlik moylarni deparafinlash, neftni qayta ishlashdagi gazlarni ajratish, kinoplyonka ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarda qo'llaniladi.

Past temperaturada qotuvchi yuqori sifatli moylarni olish uchun neftni qayta ishlashda moy fraksiyalaridan qotish temperaturasi yuqori bo'lgan parafinlarni chiqarib tashlash zarur. Parafinlarni chiqarib tashlash jarayoni deparafinlash deb ataladi. Deparafinlash fraksiyalarini maxsus ertiuvchilar (benzol, toluol va keton) bilan selektiv eritish va keyin erituvchini kristallizator-issiqlik almashinish apparatida sovutish bilan sodir bo'ladi. Kristallizator-issiqlik almashinish apparatida parafin  $-25 \div -35^{\circ}\text{S}$  temperaturada kristallanadi.

Tabiiy gazni suyultirish jarayonida u tozalanadi, quritiladi va metan bilan boyitiladi (dastlabki tabiiy gazda metan 95% atrofida bo'ladi). Suyultirilgandan so'ng suyuqlik  $(1,5 \div 2)10^5 \text{ Pa}$  bosimgacha drossellanadi, oqibatda uning temperaturasi  $-150 \div -160^{\circ}\text{S}$  gacha pasayadi.

Ana shu xususiyatga (temperatura pasayishi bilan eruvchanlikni kamayishi) kriokonsentrasiya jarayoni (sof erituvchi konsentrasiyalangan eritmaga nisbatan

yuqori temperaturada muzlashi sababli erituvchilarni bosqichli muzlatish yo‘li bilan eritmalarни quyuqlantirish) asoslangan. Bu jarayon kimyo sanoatida ham oziq-ovqat sanoatida ham, (sharbatlarni quyuqlantirish va h.k.) hamda dengiz suvini chuchuklashtirish va oqava suvlarni tozalash uchun ham qo‘llanadi.

Kinoplyonka ishlab chiqarishda pylonka asosini yasash va yorug‘likka sezgir emulsiyani sovutish uchun sun’iy sovuqlik zarur. Pylonka asosini yasash uchun talab etiladigan sovuqlik -22÷-24 °S. Yorug‘likka sezgir emulsiyani sovutish -3 °S temperaturada amalga oshiriladi. Emulsiyani saqlash va uni asosga surtish 3 °S temperaturada amalga oshiriladi.

Kimyo sanoatida gazlarni (neft, koks va boshqa) ajratish dastlabki mahsulotlarni – uglevodorodlarni keyinchalik korxonalarga yuborish maqsadida amalga oshiriladi. Ajratish jarayonining yurituvchi kuchi komponentlar qaynash temperaturalari farqidir; bu temperaturalar manfiy bo‘lgani uchun gazlarni ajratish uchun komponentlar qaynash temperaturasi darajasigacha sovutish zarur bo‘ladi.

**Sintetik kauchuk ishlab chiqarish.** Spirtdan sintetik kauchuk olishda sovuqlik polimerlash jarayonida temperatura rejimini rostlash uchun, bug‘ kondensasiya issiqligini olish uchun, suvni sovutish uchun qo‘llaniladi.

Sovuqlik elituvchilar sifatida -12, -14 °S temperaturali kalsiy xlor eritmasi, etilenglikol va 10 °S gacha sovutilgan suv ishlatiladi.

Azot ishlab chiqarishda azotvodorod aralashmasini gazzlardan ajratib olish va ularni uglerod oksidi va metandan tozalashda sovuqlik qo‘llaniladi.

To‘qimachilik sanoati uchun anilinli bo‘yoqlarni ishlab chiqarishda asosiy jarayonlardan biri – oraliq mahsulotni nitratlash – ko‘p miqdorda issiqlik ajralishi bilan sodir bo‘ladi. Bu issiqlikni olish uchun namokobli yoki muz bilan sovutish shunday amalga oshiriladiki, jarayon temperaturasi 1 – 3 °S bo‘ladi.

Kimyo sanoati korxonalarining o‘ziga xos tomonlari ularda ishlatiluvchi sovutish qurilmalarining asosiy xarakterini belgilaydi. Odatda, kimyo sanoati korxonalarini neft hamda gaz sanoati korxonalarini kabi katta hajmda mahsulot ishlab chiqaruvchi yirik sanoat majmualaridir. Shu sababli kimyo sanoati korxonalariga

xizmat ko‘rsatuvchi sovutish qurilmalari katta sovutish unumdorligiga ega bo‘lishi kerak.

Kimyo sanoati korxonalaridagi asosiy ishlab chiqarish jarayonlari bu, odatda, uzoq davom etuvchi uzlusiz jarayonlar bo‘lib, ularda sovutish qurilmalari stabil nagruzka ostida yuqori ishonchlilikda ishlashlari zarur. Ko‘pgina kimyo korxonalarida past bosimli bug‘ va qaynoq suv ko‘rinishidagi energetik chiqindilar mavjud. 2-jadvalda sintetik spirt olish zavodlaridagi ikkilamchi energetik resurslar xarakteristikasi berilgan.

2-jadval

<b>Issiqlik man’bai</b>	<b>Chiqarib yuborilayotgan issiqlik man’baining temperaturasi, K</b>	<b>Ichqarib yuborilayotgan issiqlik miqdori, Mvt</b>
<b>Tutun gazlar</b>	423	11,6
<b>Piroliz gazlari</b>	383	31,7
<b>Suv-spirt kondensati</b>	363	9,2

Bu energiyani, xususan, absorbsion sovutish mashinalari ishi uchun ishlatish maqsadga muvofiq.

### **Nazorat savollari**

1. Qanday kimyoviy reaksiyalar sovutish bilan olib boriladi?
2. Kimyo va kimyo texnologiyasida sovuqlik qo‘llaniladi?
3. Arrenus qonuning mazmuni nimadan iborat?
4. Moylarni deparafinlashda sovuqlik nima uchun ishlatiladi?
5. Tabiiy gazni suyultirishda sovuqlik nima uchun ishlatiladi?
6. Sovaqlik tashuvchi moddalar sifatida nima ishlatiladi?

### **3- MA`RUZA. Kimyo sanoatida mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi zamonaviy yechimlar**

#### **Reja:**

1. Havo ajratish texnologiyasida past bosim qurilmalarini qo‘llanishi.
2. Karbonat angidrid sovutish mashinalarining qo‘llanilishi, ekspluatatsiyasi.

**Tayanch so'z va iboralar.** Past bosim qurilmalari, kriptonksenon aralashmasi, rektifikatsion colonna, havo ajratish qurilmalari, sovuq puflash, flegma.

1. Havoni ajratish qurilmalarida havoni ajratish texnologik sikli o'zaro bog'langan bir nechta jarayonlardan tashkil topgan: havoni siqish; uni quritish va uglerod ikki oksidi, uglevodorodlardan tozalash; toyinish haroratlarigacha va flegma deb ataluvchi suyuq fazaning kerakli miqdori hosil bo'lgunicha sovutish; past haroratda rektifikatsiya qilish usuli bilan havoni ajratish, mahsulot olish. Havo, odatda, sovutish siklining ishchi jismi bo'lgani uchun gaz ajratish qurilmalarida, ko'pincha, gazsimon oqimlarni detanderlarda kengaytirish va havoni tashqi sovuqlik man'balari bilan sovutish jarayonlari bir vaqtda amalga oshiriladi. Ajratish mahsulotlari gazsimon, 40 MPa gacha siqilgan holda yoki suyuqlik (o'ta sovutilgan) ko'rinishida olinishi mumkin. HAQlaridagi barcha jarayonlar konstruktsion jihatdan turli xil mashina va apparatlarda amalga oshiriladi, quritish va tozalash esa turli xil usullar bilan bajariladi.

Zamonaviy HAQni o'rganishda ularning quyidagi yirik qismlarni ajratib ko'rish maqsadga muvofiq: siqish, sovutish va rektifikasiya qilish.

Siqish qismi havoni kompressorga uzatish qurilmalarini, kompressorni, siqilgan havoni suv yoki havo bilan sovutish sistemasini, namlik va moy ajratgichlarni, filtrlarni va h.k. o'z ichiga oladi.

Sovutish qismiga, to'g'ri oqim deb ataluvchi siqilgan havo teskari oqim (mahsulot va atrofga chiqarib tashlanuvchi)lar bilan sovutiluvchi IAA (IAA) kiradi. Agar qurilmada regenerator yoki reversiv IAA ishlatilgan bo'lsa, havoni quritish va tozalashni regenerator nasadkalarida yoki IAA kanallari devorlarida aralashmalarni muzlatish usuli bilan amalga oshiriladi; agar almashinmaydigan IAA ishlatilgan bo'lsa, sovutish qismiga adsorbsion quritish va tozalash mahsus kompleks bloki kiritilgan bo'lishi kerak. Sovutish qismiga yana detander aggregatlari, ularning IAA, filrlar, gaz fazali adsorberlar, dastlabki sovutish freon va ammiak qurilmalari va h.k. kiradi.

Rektifikatsiya qismi rektifikatsion kolonnalarni, kondensatorlarni, flegmani o'ta sovutgichlarni, suyuq fazali adsorberlarni, suyuqlik uzatish va suyuq mahsulotlarni siqish nasoslarini va h.k. o'z ichiga oladi.

HAQlarni loyihalashda siqish qismini doim bino ichiga joylashtiriladi, chunki kompressorlarning ancha murakkab elektr jihozlari va elektr yuritmalariga xizmat ko'rsatish shuni taqazo etadi. Iqlim sharoitlariga ko'ra sovutish va rektifikatsiya qismlari bino ichiga yoki tashqariga joylashtirilishi, birlashtirilishi yoki ajratilishi mumkin. HAQning har bir qism parametrlari boshqa qismlar va butun qurilmaning ishiga katta ta'sir etishi mumkin, shuning uchun HAQ qismlaridagi sovutish unumdoorligi va energiya yo'qotuvlari o'zaro bog'liq. Buni qurilmalarni loyihalashda ham, ishlatishda ham etiborga olish zarur.

Havoni ajratish texnologiyasini o'rganish va HAQ qismlarining o'zaro bog'liqligini oydinlashtirish uchun yuqori, o'rta va past bosim qurilmalarining aniq bir texnologik sxemalari misolida texnologik qismlarining xususiyatlari va parametrlarini tahlil qilish kerak. Bunda havoning namlik saqlamlaridagi farqqa, tozalash usuliga, havoni  $N_2-O_2-Ar$  aralashma sifatida ajratishga, bir vaqtida toza azot va kislород олиш имконијати шартларига, havoni kompleks ajratish va argon, kriptonksenon, neongeliy aralashmalarini olish printsiplariga e'tibor qaratish lozim. Turli qurilmalarning sovutish unumdoorligi boyicha balansga egaligini baholash va sovutish sarfining tashkil etuvchilarini alohida baholash muhim ahamiyatga ega.

**Past bosim havo ajratish qurilmalari.** KAp-30 qurilmasi past bosim siklida ishlovchi havoni kompleks ajratish yirik qurilmasi hisoblanadi. Sarflanuvchi havo miqdori  $B = 18 \cdot 10^4 \text{ m}^3/\text{soat}$  ( $217000 \text{ kg}/\text{soat}$ ). Sof argon ( $350 \text{ m}^3/\text{soat}$ ) suyuq yoki siqilgan ( $p = 22 \text{ MPa}$ ) holda; texnik kislород mahsulotining bir qismi ( $300 \text{ m}^3/\text{soat}$ ) ham siqilgan holda ( $22 \text{ MPa}$  gacha) olinishi mumkin. Suyuq azot va kislород ( $200 \text{ kg}/\text{soat}$  dan) yoki faqat suyuq kislород ( $670 \text{ kg}/\text{soat}$ ) олиш имконијати ko'zda tutilgan. Qurilmada  $0,2 \%$  li kriptonksenon kontsentrati  $75 \text{ m}^3/\text{soat}$  miqdorda va  $50 \div 40 \%$  li neongeliy kontsentrati ( $\text{Ne}; \text{He}; \text{N}_2; \text{H}_2$ )  $4 \text{ m}^3/\text{soat}$  miqdorda olinadi. Aralashmada neon va geliy ulushi  $60 \%$  gacha, olinuvchi suyuq mahsulotlar molyar ulushi  $1,2\%$  gacha oshirilishi mumkinligi tadqiqotlarda ko'rsatilgan.

Havo filtr 1 dan o'tib, turbokompressor 2 da 0,66 MPa gacha siqiladi. Atmosfera havosining nisbiy namligi  $\varphi = 0,7$  va harorati 30 °C da kompressorga havo bilan kiruvchi namlik:

$$(G_{H_2O})_{p_c} = 217000 \cdot 0,7 \cdot 25,4 / 1000 = 3850 \text{ kg/soat}$$

0,66 MPa gacha siqish va turbokompressor sovutgichida toyinish holatigacha sovutishdan so'ng havodagi namlik


$$(G_{H_2O})_{p_x} = 217000 \cdot 6 \cdot 10^{-3} = 1300 \text{ kg/soat}$$

ya'ni, siqish qismining namlik ajratgichida 1 soatda  $3850 - 1300 = 2550$  kg suv ajraladi. Suv bug'lari bilan toyingan havo azot-suv sovutish sistemasi 3 ga va keyin regeneratorlar 5 ga beriladi, ularda toyinish haroratlariga (101–102K) yaqin haroratgacha soviydi. Regeneratorlarda "issiq puflash davri" deb ataluvchi vaqtida havo maydalangan bazalt toshi qatlidan o'tadi, qatlam "sovutq puflash davrida" teskari azot oqimi bilan sovutilgan bo'ladi. Havo va azot oqimlari davriy ravishda (har 9 minutda) almashinib turadi. Regeneratorlarning 20 °C da namlik boyicha nagruzkasi

$$(G_{H_2O})_{pe2} \approx 217000 \cdot 3,5 \cdot 10^{-3} \approx 760 \text{ kg/soat}$$

uglerod ikki oksidi boyicha nagruzka

$$(G_{C_2O})_{pe2} \approx 217000 \cdot 0,046 / 100 \approx 100 \text{ kg/soat}$$



2.27-rasm. KAr-30 qurilmasining soddalashtirilgan texnologik sxemasi.

Past bosim qurilmalari uchun azot-suv sovutish sistemasi muhim ahamiyatga ega. Gap shundaki, oqimlar yo'nalishi almashganda regeneratorlarda bosim qisqa vaqtida 0,65 dan 0,13 MPa gacha pasayadi. Bunda, issiq puflashda havodan nasadka yuzasida kondensatsiyalangan namlikning bir qismi gaz oqimi bilan chiqib ketadi, shuning uchun sovuq puflash davrining dastlabki 30-60 s davomida namlikning asosiy qismi teskari oqim bilan chiqib ketadi va vaqtning qolgan (ko'p) qismida teskari oqim regeneratorlardan quruq holda chiqadi. Namlik qurilmaga havo bilan bug' ko'rinishida kirib qurilmadan kondensat shaklida chiqqani uchun shunga mos sovutish unumdorligi ham yo'qoladi. Bu yo'qotuv son jihatdan namlikni kondensatsiyalanishga sarflangan sovutish unumdorligiga teng. Past bosim qurilmalari kichik sovutish unumdorligiga ega ekanligi sababli sovutish unumdorligining bunday qo'shimcha yo'qotuvlariga, ayniqsa janubiy kengliklardagi atmosfera havosining yuqori haroratlarida ta'sirchandir. Havo harorati ortganida regeneratorga kiruvchi suv bug'larining ulushi ortadi, chiqariluvchi kondensatsiyalangan namlik bilan yo'qoluvchi sovutish unumdorligi ham ortadi. Bir vaqtning o'zida sovuq apparatlarga issiqlik oqimi ham ortadi. Agar zaruriy choralar

ko'rilmasa, bu omillar qurilma unumdorligini pasaytiradi va hatto turg'un rejimni buzishi mumkin.

Sovutish unumdorligining bu yo'qotuvlarini bir necha usul bilan qoplash mumkin. Masalan, sovuq puflash vaqtida nasadka harorati 5–7 °S bo'lgan regenerator zonasiga ma'lum suv miqdorini kiritish mumkin, suv bug'lanib regenerator nasadkasini sovutadi. Azot-suv sovutish sistemasi deb nomlanuvchi sistemalar amalda ko'p ishlatiladi. Sovuq puflash davrining ko'p qismida quruq holda qoluvchi teskari azot oqimi azot skrubberiga yo'naladi, suv bug'lari bilan toyinadi, pastga oqib tushayotgan suvni sovutadi. Sovutilgan suv nasos vositasida skrubberga beriladi va pastga oqa turib qarama-qarshi yo'nalgan siqilgan havo oqimini sovutadi, havo, so'ngra, namlik ajratgich orqali regeneratorlarga boradi. Regeneratorlarning namlik boyicha nagruzkasi havoning skrubberdan chiqishidagi harorat va bosim bilan aniqlanadi. Past bosim qurilmalarida regeneratorlarning namlik boyicha nagruzkasi  $\text{SO}_2$  boyicha nagruzkasidan, odatda, 10 marotaba katta bo'lishiga qaramay, namlikni teskari oqim bilan ma'lum haroratlar farqida olib ketilishi regeneratorlarni o'z-o'zini tozalashini ishonchli taminlaydi.

KAp-30 HAQda regeneratorlar uchtadan to'rtta guruhga ajratilgan (2.27-rasmida 1 ta guruh ko'rsatilgan). Regeneratorlardan so'ng havo adsorberlar 28 ga (ular 2 ta) tushib, qolgan uglevodorodlar yutiladi. So'ngra, havo ikki oqimga ajraladi: birinchi (asosiy) oqim quyi kolonna 25 ga (diametr 3700 mm, tarelkalar soni 17 ta) yo'naladi, ikkinchisi esa - "sirtmoq" zmeevigiga borib, undan 155 K haroratda (regeneratorning o'rta qismidan) oz miqdordagi sovuq havo bilan qo'shilib turbodetander 6 ga yuboriladi. Asosiy oqimning bir qismi 27 va 7 apparatlariga yuborilib sovutiladi va qisman kondensatsiyalanadi. Turbodetanderda 1 soatda 42300 kg ga yaqin havo kengayadi, unga kirish va chiqishdagi harorat mos ravishda 138 K va 97 K. Turli ish rejimlarida harorat va detander oqimining ulushi turlicha. Detanderda gaz sarfining minimal qiymati 128 K da 30000 kg/soat. Turbodetanderdan so'ng havo oqimi "sirtmoq" oqimining qismi bilan aralashib, argon IAA 14 ga yo'naladi va yuqori kolonna 8 ga beriladi.

Rektifikatsion kolonnalar 8, 25 dagi ishchi jarayon oldingi ko'rilganlarga o'xshash. Kolonnalar bir xil balandliklarga o'rnatilgani sababli suyuq kislorodni idish 24 ga uzatish uchun unumdorligi  $130 \text{ m}^3/\text{soat}$  bo'lган ikkita markazdan qochma 26 nasos (1 tasi rezerv) o'rnatiladi. Idishdan suyuq kislorod kondensator-bug'latgich 23 ga va kripton kolonnasi 22 (diametr 1000 mm, tarelkalar soni 31 ta) ga boradi. Kondensator-bug'latgich 23 dan suyuq kislorodning bir qismi suyuq faza adsorberi 21 orqali bug'latgichga, portlovchi aralashmalar yig'ilishini bartaraf qilishi uchun boradi, so'ng kripton kolonnasi 22 ga yo'naladi. Kripton kolonnasidan texnik kislorod ( $99,7\% \text{ O}_2$ ) bug'latgich-o'ta sovutgichga borib suyuq kislorod nasosi 20 ga so'rildi. Suyuq kislorodni mahsulot sifatida olish ham mumkin. Nasos 20 da siqilgan texnik kislorod regenerator zmeeviklaridan o'tib gazga aylanadi, isiydi va iste'molchi ballonlariga uzatiladi. Past bosimli gazsimon texnik kislorodning ( $99,5\% \text{ O}_2$ ) asosiy oqimi yuqori kolonna 8 ning ikkinchi tarelkasidan (pastdan hisoblanganda) olinib kripton kolonnasi 22 dan kelayotgan kislorod bilan qo'shiladi, IAA 27 da havoning to'g'ri oqimi bilan isitiladi va regeneratorlarning zmeeviklariga beriladi. Quruq texnik kislorod mahsuloti regeneratorlardan 6–7 K norekuperatsiya haroratida chiqib iste'molchiga beriladi. Kripton kolonnasi 22 ning quyi qismida (bug'latgich 19 da) qiyin uchuvchan kripton va ksenonlar konsentrasiyalanadi. Bu yerdan suyuqlik kondensator-bug'latgich 16 ga borib, bug'lanish natijasida kripton va ksenonning suyuqlikdagi ulushi 0,1-0,2 % gacha ortadi. Dastlabki krypton-ksenon kontsentrati deb ataluvchi aralashma bug'latgich 15 ga quyiladi, suv bilan tezda bug'lanirilib (portlovchi aralashmalar yig'ilmasligi uchun), iste'molchiga beriladi. Kriptonni ajratish koeffitsienti tahminan 60-68%.

Yuqorida aytib o'tilganidek, neon, geliy va vodorod kondensatorlarning bug' o'tmaydigan yuqori qismida kondensatsiyalanmaydigan bug'lar sifatida to'planadi. Neongeliy aralashmasi kondensator 19 qopqog'i va kolonna 13 kondensatoridan (sxemada faqat kondensator 19 dan chiqarish ko'rsatilgan) olinib, kolonna 8 ning yuqori qismiga joylashtirilgan deflegmatorga drossellanadi. Bu yerdan 50-40 % Ne va He, 2 % gacha  $\text{H}_2$  (qolgani – azot) tarkibidagi kondensatsiyalanmagan bug'lar iste'molchiga boradi.

Detanderdan chiqqan havoni yuqori kolonna 8 ga kiritish komponentlarni kolonna balandligi boyicha va uning har bir sektsiyasida taqsimlanishini sezilarli o'zgartiradi. Argon fraktsiyasini kolonna 8 da olishda flegma turli nisbati bilan ishlovchi beshtadan kam bo'lмаган sektsiyalar mavjud. 3800 mm diametrli 8 yuqori kolonna 57 ta tarelkaga ega. Argon fraktsiyasi 27-tarelkadan olinib, xom-ashyo argoni kolonnasi 9 (diametr 2800 mm, 53 ta tarelkalar) ga boradi. 4% gacha O<sub>2</sub> va 10 % gacha N<sub>2</sub> dan iborat xom-ashyo argoni kondensator 10 dan kondensator 11 ga beriladi, so'ng argon IAA 14 da bug'lanadi, isiydi va kisloroddan tozalanish uchun ApT qurilmasiga beriladi. Tozalanib, qurigandan so'ng texnik argon IAA da sovuydi va kondensator 12 da kub suyuqlikning bir qismini bug'lanishi natijasida kondensatsiyalanadi, sof argon kolonnasi 13 (diametr 600 mm, 30 ta tarelka) ga borib Ar-N<sub>2</sub> aralashmasi ajraladi. Argon kolonna quyi qismidan suyuq argon nasosi 17 ga beriladi (yoki quyiladi) va gazga aylanib regeneratorlar 5 ning argon zmeeviklarida isiydi va iste'molchi ballonlariga beriladi. Azot kolonna 13 bug'latgichidan chiqib yuqori kolonna 8 dan chiquvchi azotning asosiy oqimi bilan aralashadi va o'ta sovutgichlar 7 orqali regeneratorlar 5 ga, azotsuv sovutish sistemasi 3 ga boradi. Chiqindi azot (97-99 %) atmosferaga chiqariladi. Kondensatsiya-lanmagan gazlar N<sub>2</sub>; Ar; H<sub>2</sub> kolonna 13 kondensatorining yuqori qismidan oz miqdorda X liniyasidan doimiy chiqariladi.

KAp-30 qurilmasining sovutish unumдорлиги boyicha balansiga baho berish maqsadga muvofiq. Havoni kompressorda siqishda sovutgichdan olib ketilgan issiqliklar farqi va 0,66 MPa gacha siqish ishi tufayli olingan sovutish unumдорлиги

$$\Delta i_{T_a} = 35,0 \text{ J/mol}$$

Havoni turbodetanderda ( $T_{\kappa_{up}} = 138 \text{ K}$ ;  $\eta_{ao} = 85 \%$ ) kengayishidagi 1 mol siqilgan havoga to'g'ri keluvchi sovutish unumдорлиги

$$q_{dem} = \frac{42300}{217000} 0,85 (3850 - 2500) = 224 \text{ J/mol.}$$

Shu tariqa, sikl uchun

$$q_u = 35 + 224 = 259 \text{ J/mol.}$$

Havoning sekundli sarfi

$$q_x = \frac{217000 \cdot 1000}{29 \cdot 3600} = 2080 \text{ mol/s},$$

bu holda qurilmaning to'liq sovutish unumdorligi

$$Q_T = 2080 \cdot 259 = 540000 \text{ Vt.}$$

Asosiy rejim uchun

1) atrof-muhittan kelayotgan issiqlik oqimlarini qoplash uchun sovutish unumdorligi ( $q_a = 8200 \cdot B^{-0,25} = 8200 \cdot 180000^{-0,25} = 4000 \text{ J/m}^3$  nisbiy yo'qotuvlarda):

$$Q_a = 4000 \cdot 180000 / 3600 = 200000 \text{ Vt};$$

2) nasadka boyicha  $\Delta T_h = 3 \text{ K}$  li isimagan oqim (1712 mol/s) va zmeevikda  $\Delta T_h = 6 \text{ K}$ ,  $c_p \approx 29,4 \text{ J/(mol*K)}$  li oqim bilan yo'qolayotgan sovutish unumdorligi:

$$Q_h = 1712 \cdot 29,4 \cdot 3 + 360 \cdot 29,4 \cdot 6 = 214000 \text{ Vt};$$

3) suyuq argon (4 mol/s) olish uchun sarflanuvchi sovutish unumdorligi:

$$Q_{Ap} = 4(163 + (300 - 87) \cdot 0,523)39,9 = 43000 \text{ Vt},$$

bu yerda entalpiyalar farqi argonning bug' hosil qilish issiqligi 163 J/g va 300 K dan kondensatsiyalanish boshlanish harorati 87 K gacha sovutishdagi (o'rtacha nisbiy issiqlik sig'imi 0,523 J/(g\*K) dagi issiqliklar yig'indisi sifatida hisoblangan; 39,9 – argonning molekulyar massasi;

4) suyuq kislород (1,7 mol/s) va suyuq kriptonksenon aralashmasini (0,87 mol/s) olishga sarflanuvchi sovutish unumdorligi:

$$Q_k = 2,57(212,7 + (300 - 90)0,94)32 = 33600 \text{ Vt};$$

5) suyuq azot olishga (1,97 mol/s) sarflanuvchi sovutish unumdorligi:

$$Q_A = 1,97(199 + (300 - 77)1,035)28 = 23400 \text{ Vt};$$

6) 22 MPa gacha siqilgan, chiqarilayotgan kislород (3,45 mol/s) bilan yo'qolayotgan sovutish unumdorligi

$$Q_{Kc} = 3,45(548,3 - 505,5)32 = 4750 \text{ Vt}$$

bu yerda, qavs ichida siqilgan va siqilmagan kislorodning 300 K dagi entalpiyalari farqi berilgan;

7) nasosning suyuq kislorodni  $0,97 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3/\text{s}$  miqdorda uzatib, 22 MPa gacha siqidagi quvvatini qoplash uchun zaruriy sovutish unumdorligi:

$$Q_{hac} = 22 \cdot 10^6 \cdot 0,97 \cdot 10^{-4} = 2080 \text{ Vt.}$$

Natijada,  $Q_a + Q_h + Q_{Ap} + Q_K + Q_A + Q_{Kc} + Q_{hac} = 520830 \text{ Vt.}$

Hisoblashda neongeliy aralashmasini sizib chiqishidagi, sovuq oqimlar quyilishidagi sovutish unumdorligining yo'qotuvlari, adsorbsiya issiqligining chiqishi e'tiborga olinmadi, shuning uchun sovutish unumdorligining balansi 3,5 % ga farq qilishini e'tiborga olish kerak.

### **Nazorat savollari**

1. Gaz ajratish qurilmalarining asosiy qismlari qaysilar?
2. Yuqori bosim qurilmasi qanday xususiyatlarga ega?
3. KjKAj-0,25 qurilmasining ishslash printsipini tushuntiring.
4. Past bosim HAQ si azotsuv sovutish sistemasining vazifasi nima?
5. Past bosim HAQ sidagi almashinuvchan regeneratorlarning vazifasi nima?
6. KAr-30 qurilmasining ishslash printsipini tushuntiring.

## **4-MA'RUA. APPARATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH. ISSIQLIK ALMASHINISHNI JADALLASHTIRISH. ABSORBSION, REKTIFIKATSIIYA KOLONNA APPARATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.**

### **Reja.**

1. Issiqlik almashinish apparatlari samaradorligini oshirish.
2. Rektifikatsiya kolonna apparatlari samaradorligini oshirish.
3. Absorbion kolonna apparatlari samaradorligini oshirish.

**Tayanch so'z va iboralar.** issiqlik almashinish apparati, kolonna apparati, rektifikatsion absorber, samaradorlik, unumdorlik

1. Ma'lum qurilmaga qaraganda, yangi issiqlik almashinish qurilmasi yuqori issiqlik o'tkazish koeffitsiyentli, yemirilishga bardosh, metall va issiqlik eltkichni uzatishga energiya sarfi kam kabi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi zarur.


Bunday issiqlik almashinish qurilmalarini loyihalash usullaridan biri – issiqlik berishni chegaralaydigan, suyuqlik yupqa qatlamini buzadigan yuzali qurilmalar

yaratishdir. 1-rasmida samarador plastinali – spiralsimon issiqlik almashinish qurilmasi keltirilgan.

Bu turdag'i qurilmalar spiral bo'yicha o'rilgan gofrirlangan list 5 va ikkala tomonidan tekis qopqoq 2 lardan tarkib topgan. Issiqlik eltkichlarni kirish va chiqishi uchun 1,4,6,7 shtuserlar mo'ljallangan. Muhitlarning qarama - qarshi yo'nalishli harakatidagi birinchi issiqlik eltkich shtuser 6 dan kiradi va gofrirlangan kanallar orqali o'tib, shtuser 4 dan chiqariladi. Ikkinci issiqlik eltkich esa, shtuser 1 dan kirib, gofrirlangan kanaldan o'tib shtuser 7 dan chiqadi.

Gofrirlangan listlardan yasalgan kanallarda sun'iy ravishda hosil qilingan gofrlar yoki makro g'adir-budurliklar diskret joylashgan bo'ladi. Ushbu g'adir-budurliklar devor yuzasidagi suyuqlik chegaraviy qatlamni buzadi va issiqlik almashinish jarayonini intensivlaydi. Undan tashqari, kanallar spiralsimon bo'lgani uchun suyuqlik oqimlari harakati davrida markazdan qochma kuchlar paydo bo'ladi. Bu omil ham jarayonni jadallahiga olib keladi.


Bu turdag'i qurilmalar juda yuqori issiqlik – energetik xarakteristikalarga egadir. Masalan, plastinali-spiralsimon issiqlik almashinish qurilmalarida  $1\text{ m}^2$  yu-



**1- rasm. Plastinali spiralsimon**

**issiqlik almashinish quril-masi.**

1,4,6,7 – shtuserlar; 2,3 – tekis qopqoqlar; 5 – gofrirlangan list.



**2-rasm. «Babeks» tipidagi issiqlik**

almashinish qurilmasining kombinatsiyalashgan trubalar o'rami.

zaga sarflanadigan quvvat miqdori oddiy turbulizatorsiz qobiq-trubali qurilmalar-nikiga qaraganda tahminan 10 marta kam.

Germaniya firmasi «Bavariya Anlagenbau» tomonidan «Babeks» tipidagi issiqlik almashinish qurilmasida ham issiqlik eltkichning chegaraviy qatلامи buzi-

ladi va jarayon intensivlashadi (2-rasm). Bu qurilma qobiq-trubali va plastinali issiqlik almashinish qurilmalarining eng yaxshi xususiyatlarini o‘z ichida mujasamlagan.


Issiqlik almashinish yuzalari 0,2...1,0 mm qalinlikdagi shtamplangan metall listlardan iborat. Metall listda yarim doira shaklidagi ariqchalar shtampovki usulida qilinadi. Shtampovka qilingan listlar simmetrik holatda ketma-ket yig‘ilib mahkamlanadi va natijada trubalar va trubalararo bo‘shliqlar hosil bo‘ladi. Suyuqlik gofrlarni tashqi tomonidan oqib o‘tishi paytida to‘lqinsimon harakatlanadi. Listlar (1500 va undan ortiq) yig‘ilib blok hosil qiladi va uning yuzasi  $7200 \text{ m}^2$  gacha bo‘lishi mumkin.

Kurilmaning trubalar bo‘shlig‘i 8,4 MPa, trubalararo bo‘shlig‘i esa 10,5 MPa gacha bo‘lgan bosimlarga bardosh bera oladi. Issiqlik eltkichlarning temperaturasi  $130\ldots760^{\circ}\text{S}$  oralikda bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, kimyoviy texnologiya jarayonlarida kimyoviy agressiv issiqlik eltkichlar qo‘llaniladi. Shuning uchun, qurilma yasashda legirlangan va maxsus materiallardan foydalilaniladi.

Qobiq-trubali issiqlik almashinish qurilmalarida jarayonni jadallashtirishning asosiy muammosi – bu issiqlik almashinish yuzasining qarama - qarshi tomonlaridagi termik qarshiliklarni tenglashtirish yoki bir-biriga yaqinlashtirishdir. Bunga erishish uchun issiqlik almashinish yuzasi **F** oshiriladi yoki issiqlik eltkichning optimal gidrodinamik rejimi tashkil etiladi.

Jarayon gidrodinamikasini yaxshilashdan maqsad, oqimning butun ko‘ndalang kesimida temperatura va tezlikni tekislashdir. Natijada, qovushoq, chegaraviy qatlamning termik qarshiligi kamayadi. Ko‘pchilik olimlarning tajribalari shuni ko‘rsatdiki, issiqlik almashinish jarayoni intensivligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri, bu suyuqlik chegaraviy yupqa qatlamining qalinligidir. Shuning uchun, issiqlik eltkichlarning harakati paytida trubalararo bo‘shliq trubalarida hosil bo‘ladigan chegaraviy yupqa qatlamni buzadigan turli shakldagi turbulizatorlar qo‘llaniladi (3-rasm).



### 3-rasm. Samarador qirrali trubalar

a – bo‘ylama qirrali; b - qirqma, spiralsimon qirrali; v – ko‘ndalang qirqlari; g- spiralsimon qirrali.


Qirrali trubalarda na faqat issiqlik almashinish yuzasi **F** ortadi, balki oqim turbulizatsiyasi jadallahsganligi sababli qirrali yuzadan issiqlik eltkichga issiqlik berish koeffitsiyentining qiymati ham ko‘payadi. Lekin, shu bilan birga, gidravlik qarshilik ham oshadi, ya’ni suyuqliknin uzatish uchun bo‘ladigan qo‘sishimcha energiya sarfini ham inobatga olish kerak.

Trubalar samaradorligi qovurg‘a shakli, geometrik o‘lchami va materialiga bog‘liq bo‘lib, issiqlik berish koeffitsiyenti bilan xarakterlanadi.

Issiqlik berish koeffitsiyentini oz miqdorda oshirish uchun po‘latdan, ko‘p miqdorda oshirish uchun esa – mis va alyuminiydan yasalgan qovurg‘alar qo‘llash maqsadga muvofiq.

Truba ichida hosil bo‘ladigan chegaraviy qatlamni buzish va jarayonni intensivlash uchun sun’iy ravishda diskret joylashtirilgan silliq diafragma, g‘adirbudurlik va moslamalar juda yuqori samara beradi. Har tomonlama mukammal va samarador issiqlik almashinish yuzali (4.42-rasm) qurilmalardan birining tuzilishi 4-rasmida keltirilgan.

Bu turdagи trubali qurilmalarda, hattoki laminar rejimda ham, issiqlik berish koeffitsiyenti oddiy trubalarnikiga qaraganda 20...100% ga ortiq bo'ladi. Agar, ushbu qurilma trubalarida diskret yasalgan botiq ariqcha va ichki tomonida silliq,



**4-rasm. Samarador qobiq-trubali issiqlik almashinish qurilmasi.**

bo'rтиq то'sиqlar joylashish qadami  $t/D = 0,25...1,0$ ,  $d/D = 0,88...0,94$  va  $Re \geq 10^4$  bo'lganida jarayon intensivligi  $Nu/Nu_{tek} = 1,8...3,2$  marta ortadi, gidravlik qarshilik esa -  $\xi/\xi_{tek} = 1,8...7$  barobar o'sadi.



**5-rasm. Ftoroplast trubali issiqlik almashinish elementi.**

Ftoroplast kabi materiallarning kashf etilishi bilan yemirilishga bardosh kimyoviy issiqlik almashinish qurilmalarini yaratish imkonini paydo bo'ldi. Bunday qurilmalar diametri 2...5 mm li trubalardan tayyorlanadi. Qurilmalardagi bosim  $P =$

1,0 MPa va issiqlik eltkichlar orasidagi temperaturalar farqi 200<sup>0</sup>S gacha bo‘lishi mumkin. Odatda, ftoroplastdan yasaladigan qurilmalar qobiq-trubali tuzilishli bo‘ladi (5-rasm).

Egiluvchan polimer trubalar o‘ramining uchlari teshikli panjaraga payvandlanadi (5b-rasm). Ftoroplast trubali issiqlik almashinish qurilmalari sulfat kislota, xlorli organik va tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Samarador qobiq-trubali issiqlik almashinish qurilmalarini yaratishni yana bir usuli – bu teshikli panjara qalinligini issiqlik almashinish devori yoki unga yaqin qalinlikda qilishdir (5b-rasm). Bunday holatlarda, temperaturalar farqi katta bo‘lishiga qaramasdan, truba va teshikli panjara mahkamlanishi joyida kuchlanishlar hosil bo‘lmaydi. Natijada, linza kompensator, U-simon truba yoki harakatchan qalpoqchali konstruksiyalar qilishga hojat qolmaydi.

Undan tashqari, elektromagnit maydonining (o‘ta yuqori chastotasi SVCH) nurlanish energiyasidan issiqlik energiya manbai sifatida foydalanishning kelajagi porloqdir.

TDTU “Sovutish va kriogen” kafedrasi ilmiy-tadqiqot ishlarida kondensator, bug‘latgich va kondensator-bug‘latgich ishiningsovutish mashinalari energetik xarakteristikalariga ta’siri ko‘rilgan.

Silliq va nakatka trubali kondensatorga ega sovutish mashinalari tadqiq qilindi. Tadqiqotning temperaturalar rejimi:  $T_o = 213 \div 233$  K;  $T_k^H = 258 \div 278$  K;  $T_o^G = 253 \div 271$  K;  $T_k^H = 303 \div 313$  K;  $T_k^H - T_o^G = 5 \div 10$  K. Bosim rejimi:

$$\frac{P_k^H}{P_o^H} = 3,04 \div 5,14 ; \quad \frac{P_k^G}{P_o^G} = 3,28 \div 5,39 . \text{ Trubalarining to‘rtta varianti tekshirildi:}$$

1- truba	silliq truba
2- truba	$t/D = 0,4 ; d/D = 0,876$
3- truba	$t/D = 0,4 ; d/D = 0,91$
4- truba	$t/D = 0,4 ; d/D = 0,945 .$

1-jadval

Silliq trubali kondensatorlari uchun tajriba natijalari

Sovuqlik elituvchining bug‘latgichdan	Re	R12 sovutish agenti	290/R600a/R600 sovutish agenti
--	----	---------------------	-----------------------------------


chiqishdagi temperaturasi, °S		t <sub>k</sub> , °S	N, Vt	Q, kVt	t <sub>k</sub> , °S	N, Vt	Q, kVt
0	1532	48	492	0,73	45,3	470	0,74
	3219	38,75	453	0,77	36,5	440	0,79
	7321	32,5	430	0,79	31,0	425	0,84
-5	1475	44,5	446	0,6	42,8	435	0,64
	3177	37,5	421	0,63	34,5	420	0,68
	7252	32,5	400	0,67	30,5	400	0,68
-10	1420	42,5	395	0,51	39,8	401	0,48
	3111	36,25	386	0,53	32,5	390	0,53
	7197	31,5	373	0,56	29,0	385	0,55

Kaskad sovutish mashinasida ikkita ishchi jism ishlatildi. Ulardan biri – yuqori bosim ishchi agenti (past temperatura ishchi jismi) – etan (R170). Boshqa ishchi agent ham ko‘rib o‘tilgan – past bosim uch komponentli aralashmasi (yuqori temperatura ishchi jismi). R290/R600a/R600 aralashmani biz ozonga xavfli R12 ga muqobil sifatida taklif qilganimiz. Bu noazeotrop aralashma R290/R600a/R600 gomogen, qaynash va kondensatsiya jarayonlari temperatura o‘zgarishi bilan borishi unga xos. Bunda suyuqliklar ajralib qolmaydi va tarkibi ham asta o‘zgarib boradi.

Kaskad sovutish mashinasining yuqorigi tarmog‘ining sovutish koeffitsiyenti tajriba qiymatlaridan ko‘rinadiki (1-jadval), noazeotrop aralashmadagi sikl R12 siklga nisbatan  $2 \div 8\%$  samarador. Samaradorlikning taxminan 5% aralashmaning termodinamik xossalari yaxshiligi, qolgani esa kondensatsiya jarayonining noizotermikligi tufaylidir. Leikn,  $t_o = -10 \text{ } ^\circ\text{S}$  da shunday rejimlar ham borki, ularda R12 sikldagi samaradorlik katta. Shuning uchun freon-12 va aralashmada ishlovchi sovutish mashinalarining o‘rtacha samaradorligi teng.

Sovutish mashinalari xarakteristikalarini taqqoslash uchun yuqori tarmoq ishchi agenti sifatida propan (R290) ishlatildi. Individual modda R290 aralashma R290/R600a/R600 qaynash va kondensatsiyalanish jarayonlarining noizotermiklik ta’sirini ko‘rsatdi.

6-rasmda kondensatordagi nisbiy issiqlik oqimining propan kondensatsiyalanish temperaturasiga bog'liqligi ko'rsatilgan. Kondensatsiya temperaturasining ortishi issiqlik nagruzkasining pasayishi bilan sodir




**6-rasm. Propani kondensatsiyalanish temperurasiga nisbiy issiqlik oqimining bog'liqligi**

bo'ladi, bu ideal sovutish mashinasi nazariyasiga ziddir. Pasayish  $q_{\kappa}^{T=303 \text{ K}} / q_{\kappa}^{T=313 \text{ K}} = 1,11$  ni tashkil qiladi. Bu nisbat noazeotrop aralashma kondensatsiyalanganda  $q_{\kappa}^{T=303 \text{ K}} / q_{\kappa}^{T=313 \text{ K}} = 1,06$  gacha kamayadi, bu jarayon noizotermikligi bilan tushuntiriladi. Kondensatsiya temperurasasi bir xil bo'lganida issiqlik oqimining silliq trubadagiga nisban ortishi barcha trubalar uchun kuzatiladi. Qurilmaning issiqlik unumdarligi issiq suvning  $70 \div 85 \text{ }^{\circ}\text{S}$  temperaturalar diapazonida pasayadi, so'ngra esa asta  $95 \text{ }^{\circ}\text{S}$  gacha o'sadi.  $Q_{\kappa} = f(t_{w2})$  (yoki  $Q_{\kappa} = f(t_{\kappa})$ ) bog'liqlikning bunday tabiatini tadqiq qilingan individual sovutish agentlari uchun ham, ularning aralashmalari uchun ham xarakterli.  $t_{\kappa} = (t_{w1} + t_{w2})/2 + 5 \text{ }^{\circ}\text{C}$  ekanini e'tiborga olish zarur.

Halqasimon diafragma va ariqchali trubalarni qo'llash yuqori tarmoqda kondensatsiya temperurasining pasayishiga olib keldi. Halqasimon diafragma va ariqchalar suyuqliklarni uzatish quvvatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi (7-rasm). 3 va

4-trubalarni qo'llanilishi suyuqliklarni uzatish quvvatini silliq trubalidagi quvvatga nisbatan pasayishiga olib keladi. 3-truba uchun  $N/N_{\text{ср}} = 0,8$  va 4-truba uchun  $N/N_{\text{ср}} = 0,92 \div 0,94$ . 2- trubani qo'llanilishi sarf qilinuvchi quvvatni ortishiga olib keladi. Bunday hol trubadagi baland turbulizatorlar gidrodinamik chegaraviy qatlamni buzishi va bu qatlamdan chiqib turishi bilan tushuntiriladi. Turbulizatorning chiqib turgan qismi oqim yadrosi yo'lida qo'shimcha qarshilik hosil qiladi va natijada suyuqlikni haydash quvvati ortadi. Sarflanuvchi quvvatni kondensatsiyalanish temperaturasiga bog'liqlik xarakteri R290 sovutish agenti va noazeotrop aralashma uchun bir xil. Aralashma kondensatsiyalanishining noizotermikligini ta'siri bor:  $N = f(T_k)$  to'g'ri chizig'i R290 sovutish agenti chizig'iga nisbatan tik.

**N, кВт**




### 7-rasm. Propanni uzatish quvvatini kondensatsiyalanish temperaturasiga bog'liqligi

Shu tariqa, halqasimon turbulizatorli trubalar issiqlik almashinishni jadallashtiradi va shu bilan birga suyuqliklarni (bug'larni) uzatish quvvatini o'zgartiradi (oshiradi yoki kamaytiradi). Trubalarning eng yaxshi variantini aniqlash uchun sovutish koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Lekin, birinchi

bobda ta'kidlanganidek, bu koeffitsiyentdan bir xil temperatura rejimida ishlovchi sovutish mashinalarini faqat solishtirish uchun foydalanish mumkin.

Silliq trubalar va issiqlik almashinishni jadallashtiruvchi trubalardan iborat kondensatorlar bilan jihozlangan barcha sovutish mashinalari uchun kondensatsiya temperaturasini ortishi sovutish koeffitsiyentini pasayishiga olib keladi (8-rasm).  $\varepsilon = f(T_k)$  chizig'i sovutish agentlarining aralashmasi kondensatsiyalanganida ancha tik, bu uning issiqlik-fizik xossalari bilan tushuntiriladi. 2-kondensatorli sovutish mashinasining  $\varepsilon$  1-kondensatorli mashinaning  $\varepsilon$  sidan kichik. 4-trubani qo'llash sovutish mashinasining samaradorligiga ta'sir etmaydi,  $\varepsilon$  koeffitsiyentlar teng.



**8-rasm. Sovutish koeffitsiyentini propan kondensatsiyalananish temperaturasiga bog'liqligi**


Tadqiqot ishida moyning kondensatsiyalish jarayoniga ta'siri ko'rildi. Sovutish agenti va moylarning o'zaro aralashuvchanligiga bog'liq ravishda ularning kondensatordagi issiqlik almashinishga ta'siri turlicha bo'lishi mumkin. Freon-moy aralashmasining halqasimon ariqchali gorizontal trubada kondensatsiyalishidagi issiqlik berish koeffitsiyenti hisoblash uchun tenglama tavsija qilingan

$$\alpha_{\kappa,\kappa} = A \frac{\alpha_\omega}{\alpha_o} \quad (1)$$

bu yerda  $A = [1,67 - 0,85(t/d_h)] \cdot 16 \cdot \exp[-3(d/d_h)]$  – kondensatsiyada issiqlik almashinishni o'sish kattaligi.

(1) tenglama nisbiy qadami  $t/d_h = 0,2 \div 0,4$  va ariqcha chuqurligi  $d/d_h = 0,872 \div 0,945$  bo'lgan trubalar uchun o'rinni. Freon-moy aralashmasini silliq trubada va halqasimon ariqchalar diskret joylashgan trubalarda plynokali kondensatsiyalanishidagi issiqlik berish jadalligini taqqoslashdan ko'rindiki, ushbu yuqori samarador trubalarni qo'llash issiqlik almashinishni 2 dan 3,6 marttagacha jadallashtiradi. Bunday samaradorlik issiqlik almashinish yuzasini shuncha marttaga qisqartirishga, ixcham issiqlik almashinish apparatini yaratishga imkon beradi.

9-rasmda quyi tarmoq sovutish unumdorligining etanni qaynash temperaturasiga bog'liqligi kondensatsiya temperaturasi  $T_\kappa = 303$  K va  $T_\kappa = 313$  K da ko'rsatilgan. Qaynash temperurasining ortishi sovutish unumdorligining pasayishiga olib keladi. Masalan, qaynash temperurasining  $T_o = 213$  K dan  $T_o = 223$  K ga ortishi (o'sish 9%) nisbiy sovutish unumdorligining 5% ga kamayishi bilan sodir bo'ladi ( $q_o = 318$  kDj/kg dan  $q_o = 301$  kDj/kg ga). Turli  $T_\kappa$  va bir xil  $T_o$  da sovutish unumdorligi sovutish mashinasi kichik kondensatsiya temperurasida ishlovchi rejim uchun kattadir. Faqatgina  $T_o = 233$  temperaturada  $q_o$  katta qiymatli  $T_\kappa$  uchun katta bo'ldi, bu xato bo'lib etan holat parametrlarini aniqlashdagi xatolik bilan tushuntiriladi. Tadqiqot natijalarini bunday tavsiflash boshqa ko'p sonli olimlar tajribalari va nazariyaga asoslanadi. Bu shunday tushuntirilishi mumkin: yuqori bosim sovutish agenti (ettan) tavsiya etilmagan qaynash oblastida ishlatilgan.




**9-rasm. Quyi tarmoq nisbiy sovutish unumdorligini qaynash temperaturasiga bog‘liqligi**


10-rasmda yuqori tarmoq nisbiy sovutish unumdorligini sovutish agentlari aralashmasi va propanning qaynash temperaturasiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Quyi tarmoqdan farqli, yuqori tarmoqda barcha sovutish agentlarining qaynash temperaturasini ortishi sovutish unumdorligini ko‘payishi bilan sodir bo‘ladi.

Ikkala tarmoqda qaynash temperaturasini ortishi bug‘ni haydash quvvatini pasayishi bilan sodir bo‘ladi. Sarflanuvchi quvvat  $T_k = 313$  K kondensatsiyalanish temperaturasida katta. Quvvat egri chiziqlarining xarakteri yuqori tarmoq uchun sifat jihatdan farqlanadi:  $T_k = 303$  K temperaturada egri chiziq og‘ish burchagi o‘zgarmas. Quvvat kaskad qurilmasi uchun emas, balki uning tarmoqlari uchun alohida aniqlangan.

Qaynash temperaturasining o‘sishi sovutish koeffitsiyentini ortishiga olib keladi. Kondensatsiya va bug‘lanishning bir xil temperaturalarida  $\varepsilon$  sof propanda ishlovchi mashina uchun kattaroqdir (11-rasm).



**10-rasm. Yuqori tarmoq nisbiy unumdorligini qaynash temperaturasiga bog‘liqligi**



**11-rasm. Sovutish koeffitsiyentini qaynash temperaturasiga bog‘liqligi**

Kaskad sovutish mashinasini tadqiq qilishda kondensator-bug‘latgichning xarakteristikalari  $q_{uk} = 348 \div 406 \text{ kDj/kg}$ ;  $k = 0,83 \div 1,81 \text{ kVt/(m}^2\cdot\text{K)}$ ;  $\theta = 5 \div 10 \text{ }^{\circ}\text{S}$  diapazonda o‘zgardi. Etalon issiqlik almashinish yuzalarini  $1 \div 4$  yuzalar bilan almashtirish 3.3., 4.1 va 4.2 bo‘limlarda aytib o‘tilgan jarayonlarga olib keladi: samarador yuzada qaynash issiqlik berish koeffitsiyentini o‘sishiga olib kelmaydi ( $\alpha_{\text{ел}}^{ucn} = \alpha^{ucn}$ ), kondensatsiyalanishda esa – aksincha (masalan, trubalar uchun  $\alpha^{\kappa}/\alpha_{\text{ел}}^{\kappa} = 2$ ).

### **Nazorat savollari**

1. Ildiz va tuganak mevalarni archishning UFMQQ foydalanib samarali qanday texnologik usuli taklif qilingan?
2. Mavhum qaynashning boshlanish tezligi ikki va uch fazali sistemalar uchun qanday?
3. Yog‘ni ekstraksiyalashda ekstragentni sovutish uchun qanday darajadagi sovuqlik talab etiladi?
4. Yog‘ni ekstraksiyalashda sun’iy sovuqlikka ehtiyoj bormi?
5. Mavhum qaynash qatlamida quritishning qanday avzalliklari bor?
6. Qanday materiallarni mavhum qaynash qatlamida quritish tavsiya etiladi?

## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### 1-amaliy mashg'ulot: O'qish jarayonini tashkil qilishda o'quv rejalarini tuzish

O'qish jarayonini tashkil etishda meyoriy hujjatlarni tayyorlash muhim, asos bo'lувчи bosqich hisoblanadi. Meyoriy hujjatlarning asosiylaridan bo'lmish o'quv rejasini ishlab chiqishni amalda bajarib ko'ramiz.

O'quv rejasini tuzishni OTM bakalavriatura bosqichining "Texnologik mashinalar va jihozlar" o'quv yo'nalishi misolida ko'rib o'tamiz. Quyida o'quv rejasi berilgan.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

#### O'QUV REJA

Ta'lim yo'nalishi: 60720700 - Texnologik mashinalar va jixozlar  
(sovutish mashinasozligi)

Akademik daraja - BAKALAVR

O'qish muddati - 4 yil

Ta'lim shakli - kunduzgi

Institutlik - Muhandis mexanik

"TASDIQLAYMAN"  
I.Karimov nomli Toshkent davlat  
texnika universiteti rektori

S.M.Turabdjano

2023 yil «\_»  
m.o.

#### I. O'QUV JARAYONI JADVALI

Ky'e		Haftalar												Jum'i	O'quv jarayoni haftalarini soni shundan				Xammasi		
		Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr	Janvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	August		Rasmiy va manzil tili, ha	Alternativ tili, ha	Kreditli ha	Muhokim			
I	E				A T A T A T K						A A T T T T T			57	30	5	2		15	52	
II	E				A T T A A T T K						A A M M M M M			42	30	5	2		10	52	
III	E				A T T A A T T T K						A A M M M M M M			65	20	5	3		7	52	
IV	E				A A T T K						A A M M M B B T T			42	30	4	1	2	5	48	
														Jum'i	166	120	19	8	14	5	204

□ Nazariy va amaliy ta'lim    M    Malakaviy amaliy    K    Kredit ta'lim tizimiga kirish    A    Attestatsiyalar    B    Birur malakaviy ihti    T    Ta'sil

#### II. O'QUV REJASI

T/r	Fanning malakaviy kod	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Ta'labaning o'quv yuklamasi, saqlardacha												Soatlarning kurs, semestr va haftalar bo'yicha taqsimoti								Kreditlarning kurs, semestr va haftalar bo'yicha taqsimoti												
			Auditoriya maslah'otlari, testlarda												Kreditlarning kurs, semestr va haftalar bo'yicha taqsimoti								Kreditlarning kurs, semestr va haftalar bo'yicha taqsimoti												
			Umumiy yuklama hajmi	Juni	Moyusa	Amaliy	Laboratoriya	Seminar	Kurs ihti	Mustaqillik, ha	1	2	3	4	5	6	7	8	1	2	3	4	5	6	7	8	1	2	3	4	5	6	7	8	
			soat	%							15	15	15	15	15	15	15	15	15	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30
1		2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28							
1.00		Majburiy fanlar	4980	2174	988	830	266	90	2kl, 2kl	2806	28	24	24	16	12	13	16	12	30	26	30	17	15	14	21	13	166								
1.01	O'RT11204	Qizib (qa) tili	120	60	60						60	4																							4
1.02	DIN11104	Dinamik	120	60	30						30	60	4																						4
1.03	KIM11104	Kimyo	120	60	30	16	14				60	4																						4	
1.04	XT11308	Xediat tili 1,2	240	120	120						120	4	4																					3	
1.05	FIZ11210	Fizika 1,2	300	120	60	30	30				180	4	4																				10		
1.06	OM11315	Qiz yusqustika 1,2,3	450	210	104	106					240	6	4	4																			15		
1.07	O'ETY11204	Qazekonomika eng yangi texniki	120	60	30						60	4																						4	
1.08	TTAT11204	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	60	30	16	14				60	4																					4		
1.09	MKG11204	Muhendislik va kompyuter profifikasi	180	90	30	60					90	6																					6		
1.10	MSO/A1230	Mesroloqija standartlari uchunva o'zaroqishshunoslik	150	60	30	16	14				90	4																					5		

1.10	MSO'Al230 4	Metallurgiya istapdarlashtiruvchi va qo'shma shartnoma	150	60	30	16	14		90		4								5		5
1.11	SIM14704	Sohja ishlardan va menzimani	120	60	30	30			60			4							4		4

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28		
1.12	FAL13504	<b>Faoliyfa</b>	120	60	30				60					4									4		4				
1.13	EKA13604	<b>Ekologiya</b>	120	60	30	16	14		60					4									4		4				
1.14	XFX14804	<b>Hayot faoliyati hayfizligi</b>	120	60	30	14	16		60					4									4		4				
1.15	MKMT12410	<b>Material hujumlari va konstruksiyon materialari texnologiyasi</b>	300	120	60	30	30		180			4	4									6	4			10			
1.16	MQMD12611	<b>Materiallar o'shligi va mashina detallari</b>	330	134	60	44	30		kl	196				4	5							5	6			11			
1.17	NMDQDN12510	<b>Nazariy mezaniy va mashina mezonizmlari nazariyasiga</b>	300	120	60	46	14		kg	180			4	4							5	5			10				
1.18	GIDR11205	<b>Gidravlitika</b>	150	60	30	16	14		90		4										5				5				
1.19	TMT12306	<b>Teknologik mashinalar termodynamikasi</b>	180	60	30	20	10		120		4										6				6				
1.20	IMA12404	<b>Isqilik va massha almashinish</b>	120	60	30	30			60												4				4				
1.21	XKI14810	<b>Havoni konditsiyalish</b>	300	120	60	30	30		180					4	4						5	5	10						
1.22	SQI14810	<b>Sovutish qurilmalari</b>	300	120	74	26	20		kl	180				4	4						6	4	10						
1.23	SMX13710	<b>Sovutish mashinalarini hisoblash</b>	300	120	60	60			ki	180				4	4						4	6	10						
1.24	SM12510	<b>Sovutish mashinalari</b>	300	120	60	44	16		180					4	4						4	6			10				
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	1650	25	706	354	280	50	22	944		4	8	12	7	8	8	4	8	15	9	9	10	35					
2.01	MuxP23602	<b>Muxordidlik texnologiyasi</b>	120	46	24			22	74					3								4		4					
	YTO'RK23604	<b>Qozonchilik O'sebishuv Respublikasi Respublikasida</b>																											
2.02	SSI21204	<b>Sun'iy sovutlik iste'molchilar</b>	120	60	30	30			60		4										4				4				
	YK21204	<b>Yo'nalishga kirish</b>																											
2.03	MTA23503	<b>Mashinasozlik texnologiyasi asoslari</b>	150	60	30	16	14		90					4							5		5						
	SMT23503	<b>Sovutish mashinasozlik texnologiyasi</b>																											
2.04	SA22404	<b>Sovutish asoslari</b>	120	60	30	14	10		60					4							4				4				
	STNA22404	<b>Sovutish texnikasining nazariy asoslari</b>																											
2.05	TK22404	<b>Texnologik ixtrozami konstruksiyalish</b>	120	60	30	30			60					4							4				4				
	TAAH42404	<b>Isqilik almashinish apparatlarini hisoblash</b>																											
2.06	GA24805	<b>Gazalri ajratish</b>	150	60	30	30			90																5				
	HAQ24805	<b>Havoni ajratish qurilmalari</b>																											
2.07	STEAS24810	<b>Sovutish tizimlan elektr va avtomatlashtirish sxemalari</b>	300	120	60	40	20		180					4	4						5	5	10						
	STAA24810	<b>Sovutish texnikasining avtomatlashtirish asoslari</b>																											
2.08	TMTO'24704	<b>Texnologik mashinalar vajixozlarini ta'mirlash, o'mish</b>	120	60	30	30			60					4							4		4						
	MP24704	<b>Mashinalar pustaligi</b>																											
2.09		<b>Harbiy tayyoradik</b>	450	180	90	90			270					8	4						10	5		15					
2.09.1	FM23605	<b>Fayzox muassasi</b>	150	60	30	30			90					4							5		5						
2.09.2	TBA23605	<b>Jahoy qurilmalari</b>	150	60	30	30			90					4							5		5						
	KT23505	<b>Kriogen texnikasi</b>	150	60	30	30			90					4							5		5						
2.09.3	NVK23505	<b>Nasoslar, ventilatorlar va kompressorlar</b>	150	60	30	30			90					4							5		5						
	Jami		6630	100	2880	1342	1106	320	112	2kl, 2kl	3750	28	28	24	24	24	20	24	20	30	30	30	25	30	23	30	23	221	
	MA2813	<b>Malakaviy amaliyatlar</b>	420																		5	7	2	14					
	DA4805	<b>Davlat attestatsiyasi</b>	150																		30	30	30	30	30	30	240		
		<b>HAMMASI</b>	7200																										

**Izoh:**

1. Jismoniy tarbiya va sport fani fakultativ fan sifatida o'tildi
2. Olib matematika fanning 3-qismida Ehtimollar nazariyasi va matematik modellashtirish qismi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari olib borish ko'zda tutilgan.
3. 1 kredit 30 akademik soatni tashkil qila di.

4. Harbiy tayyorligi mashg'ulotlari tanlov fanlari blokiga kirtiladi, harbiy yig'in esa ta'il va vaqt hisobiga o'tkaziladi.
5. Kurs loyiha, kurs ishlari uchun talabaga mustaqil ta'lim soatlaridan 30 akademik soatni ajratgan holda 1 kredit beriladi.
6. Yakuniy davlat attestatsiyasi muddatlarini tarkibiga bitiruv malakaviy ishlari himoya qilish ham kiradi.
7. O'quv rejiga kirtiladiqda ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari olib ta'lim muassasasi hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.
8. Nazanya va amaliyot yaxlitigini ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismi	Haftalar soni	Semestr	Daylat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	120	1-8	
Malakaviy amaliyat	14	4,6,8	
Attestatsiyalar	19	1-8	
Yakuniy davlat attestatsiyalari	5	8	
Ta'lliflar	38	1-8	
Kredit ta'lim tizimiga kirish	8	1-8	
<b>Jami</b>	<b>204</b>		

Bitiruv malakaviy ishlari himoya qilish yoki ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi

O'quv ishlari bo'yicha prorektor ..... Kengashida tavsiya etilgan

..... 20.... yil « \_\_\_\_ » dagi

## 2-amaliy mashg'ulot: Past bosim havo ajratish qurilmasining prinsipial sxemasini tuzish, ish siklini holat diagrammasida qurish. Qurilma unum-dorligini hisoblash

### 1-masala:

novka	Rasxod perera-	Davleniye sjatogo	Proizvoditelnost ustanovki, $m^3/ch$ (po gazoobraznomu produktu) ili $kg/ch$ (po jidkomu produktu)	Kislorod	Azot chisti	Argon	$\circ = \circ$	$\ldots = \ldots$
-------	----------------	-------------------	--	----------	-------------	-------	-----------------	-------------------

Metan gazi  $C_2H_6$  retifikatsiya kalonnasida sovutilib, ajratilayotgan gazning temperaturasi 180 K. Gazning sarfi  $G = 100 m^3/min$ . Qancha miqdorda suyuqlik hosil bo'lishini aniqlang.

$$G(i_s - i_{ox}) = L(ct_b - st_o)$$

$$L = \frac{G(i_s - i_{ox})}{(ct_b - st_o)}; \quad t_o = -93^\circ C; \quad p = s \text{ utm}$$

1. Havoni ajratish.

$70000 m^3/soat$  gazsimon kislorod olish uchun qancha miqdordagi havoni qayta ishslash kerak.

Texnologik kislorod mahsuloti 93 %

### Yechish:

Qayta ishlanuvchi havo miqdori quydagagi formula bilan aniqlanadi.

$$V_x = \frac{V_k \cdot Y_k}{Y_{o_2} \cdot \beta_k}$$

bu formulada  $Y_k$  va  $Y_{o_2}$  mos ravishda kislorod mahsuloti va havodagi kislorodning hajmiy ulishi.

$\beta_k$  – kislorodning ajratilish koeffitsenti.

$V_k = 70000 m^3/soat$  havodagi kislorod hajmining ulishi.

$$Y_{o_2} = 20,95 \%$$

$\beta_k$ ni aniqlash uchun quydagicha ish tutamiz. Kislorodni ajratish qanday bosimdagи havo ajratish qurilmasi ( $X_i \Delta K_i$ ) da amalga oshirish nazarga olinadi. Biz past bosim qurilmasi deb qabul qilaylik.

$$V_x = \frac{70000 \cdot 93}{20,95 \cdot 0,6} = 517899;$$

$\beta_k = 0,6$  deb qabul qilamiz.

### Havo ajratish qurilmalarining texnologik asosiy parametrlari

	bativayemogo vozduxa, $m^3/ch$	vozduxa, MPa	Texnologicheskiy gazoobrazniy	Texnologicheskiy gazoobrazniy	Texnologicheskiy jidkiy	Texnologicheskiy visokogodovleniya	Gazoobrazniy	Jidkiy	chistiy jidkiy	
									(v pereschete na chistuyu smes etix gazon)	

Ustanovki NPO «Kriogenmash»

Kt-70	350 000	0,625	60 000	-	5050	-	-	50	-	0,26	3,82
KtA-35;	180 000	0,61	34 000	-	1500	-	22 000	1900	-	-	-
KtA-35-1;											
KtA-35-2;											
KtK-35-3;	180 000	0,61-0,62	24 200	11 000	670	300	-	50	-	0,14 <sub>3</sub>	1,5
KA-32; KA-32-1;	180 000	0,639-0,654	-	30 000	1130	-	22 000	730	-	-	-
KA-32-2;											
KAAR-32;	180 000	0,61	-	30 425	1350	-	35 530	-	787 (r=20 MPa)	0,15	-
KAr-30;	180 000	0,64-0,66	-	29 850	370	300	-	200	5800	0,15	1,6
KA-15	85 000	0,62	-	15 500 13 500	- (700)	16 000 16 000	- (700)	- (700)	-	-	-
KAAR-15	85 000	0,63	-	15 500	-	-	16 000	-	300	-	-
AKt-30	85 000	0,61-0,62	16 500	-	-	-	30 000	600	-	-	-
KA-5	31 000	0,6	-	5 300	-	150	15 000	-	-	-	0,88 <sub>2</sub>
A-8-1	24 000	0,62	-	-	(120)	100	8500 (r=0,55 MPa)	(120)	-	-	-
A-6; A-6-1	15 600	0,88	-	-	-	100	5 465 (r=0,55 MPa)	116,5	-	-	-
KjAjArj-6	22 000	3,2	-	4 500	6000	-	13 200 8 500	1670 7200	290 290	-	-
K-1,4	8 900	0,63	-	1 400	-	-	-	-	-	-	-
AjKjKAj-8	8 000	19,6	-	75 1 675	2100	-	4 300 2 550	60*	2000	-	0,25
K-0,4	2 600	5,0	-	-	(165)	(400-450)	-	(150)	-	-	-
AK-1,5	2 600	4,0	-	-	(215)	(230)	1 625-1300 (1 750)	(160)	-	-	-
KjKAj-0,25	1 140	19,6	-	-	(250)	(185)	-	(250)	-	-	-
K-0,15	960	4,5	-	-	(200) (90)	50 (165-130)	- (70)	(200) (70)	-	-	-
A-0,6	960	4,5	-	-	-	-	450-550 (r=0,5...0,8 MPa)	-	-	-	-
AK-0,6	900	4,0	-	-	(80)	(85)	600-480	(60)	-	-	-

Ustanovki Sverdlovskogo ZKM

K-0,04	240	11-19,6	-	-	-	44	-	-	-	-	-
AK-0,135	240	11-19,6	-	-	-	35	135	-	-	-	-
KjAj-0,4MT4	240	Do 19,6	-	-	(34)	42	40 (r=19 MPa)	(34)	-	-	-
AjA-0,04MT4	240	Do 19,6	-	-	-	-	45 (r=19 MPa)	36	-	-	-
AjK-0,02MT4	125	Do 19,6	-	-	-	-	20 (r=19 MPa)	8	-	-	-

Ustanovki NPO «Geliymash» i Omskogo ZKM

Aj-0,05 (KGM)	60-65	-	-	-	-	-	-	52-60	-	-	-
AKDS-70M	440	19	-	-	(70)	50	90 (r≤40 MPa)	(70)	-	-	-
CKDS-70M	440	19	-	-	(70)	50	90 (r≤40 MPa)	(70)	-	-	-

Ukazana proizvoditelnost po jidkomu ili gazoobraznomu sjatomu azotu.

PRIMECHANIYA: 1. V skobkax ukazana proizvoditelnost vo vzaimoisklyuchayushix rejimax (ili-ili).

2. Znacheniya rasxoda i obyomnoy proizvoditelnosti privedeni k normalnim usloviyam.

2-masala:

Metan gazi  $C_2H_6$  rektifikatsiya kolonnasida suyultirilib ajratilyapti. Gazning temperaturasi  $180^{\circ}K$ , gazning sarfi  $100\text{ m}^3/\text{daq}$  qancha miqdor suyuq Etan xosil bo'lishini hisoblang.

Echish:

Issiqlik balansi tenglamasini tuzamiz.

$$G(i_{\delta} - i_{Dx}) = L(ct_{\delta} - ct_0)$$

$$G = 100 \frac{\text{m}^3}{\text{daq}}$$

$$L = \frac{G(i_{\delta} - i_{Dx})}{ct_{\delta} - ct_0}$$

### **3-amaliy mashg'ulot. Karbonat angidrid gazida ishlovchi sovutish mashinasining prinsipial sxemasini tuzish. Mashina issiqlik hisobini bajarish.**

Sanoat miqyosida gaz, bug' va suyuqliklar temperaturasini  $15\dots20$  gradusgacha sovitish uchun havo va suv qo'llaniladi. Mahsulotlarni past temperaturalargacha sovitish uchun past temperaturali sovuqlik eltkichlar – freonlar, amiak, uglerod dioksidi, sovutuvchi eritmalar va hakozolar ishlatiladi.

Ba'zi bir kerakli bo'lган faktlarni keltirib o'tmoqchiman:

- ❖ Suv bilan sovitish, asosan issiqlik almashinish qurilmalarida amalga oshiriladi.
- ❖ Muz bilan sovitish, bir qator mahsulotlar temperaturasini nolgacha sovitish uchun qo'llaniladi.
- ❖ Havo bilan sovitish, asosan tabiiy va sun'iy usullarda amalga oshiriladi.

Kaskad sovitish mashinalarida, ikki xil agent ishlaydi. 2 ta bir xil bir bosqichli sovutgich qoyiladi va yana 2 bosqichli sovutgichda 1 xil agent ishlaydi.

Ulardan biri yuqori bosimga ega bo'lган ishchi modda (past haroratli ishchi modda). Bu shu bilan bog'liqki, past bosimda ishlayotgan kompressorning nazariy hajmi, yuqori bosimda ishlayotgan kompressornikidan ancha ko'p bo'ladi.

Masalan ikki bosqichli sovitish mashinalarining  $V_t^1 / V_t^2 = 3 \div 4$  va qancha bosim pasaysa shuncha  $V_t'$  ortadi va bu kapitl sarflarni va kompressorning ishqalanish quvvatini ortishiga olib keladi.


Bundan tashqari past bosimdan bug` so`rilganda gazodinamik sarflar klapanlarida kompressorning siqish ishiga tenglashib qoladi.

Bu sovitish mashinalarini energetik samaradorligini pasaytiradi. Kompressor pastki bosqichining  $V_T$  va uzatish quvvatini pasaytirish usullaridan biri, yuqori bosim ishchi moddalaridan foydalanish: masalan xladon R13, xladonR14, etan va boshqalar.

Lekin atrof muhit haroratida bunday ishchi moddalarining kondensatsiya bosimi juda yuqori va ulardan ikki yoki uch bosqichli sovitish mashinalarida foydalanish qiyin. Shuning uchun bunday ishchi moddalar faqat kaskad sovitish mashinalarida qo'llaniladi.

Kurs loyihamning kirish qismiga oddiy kaskad mashinasining sxemasini va siklini misol tariqasida olishlikni joiz topmoqdaman.

Bu sxema va bu sikl orqali, kirish qismining ba'zi bir murakkabliklarini oz bo'lсада, bartaraf etishlikni imkonini beradi deb oylayman.



1-rasm. Oddiy kaskad sovitish mashinasini sxemasi va sikli

Oddiy kaskad sovitish mashinasi ikkita bir bosqichli mashinadan iborat bo`ladi. Ular pastki va yuqori qismlar yoki pastki va yuqori shohobchalar deb ataladi.

Kaskadning pastki shohobchasida yuqori bosim ishchi moddalaridan foydaniladi. Bug`latkichda VII bu past harorat manbasidan issiqlik olib, jarayon 4-1 da qaynaydi.

Kompressor 1 da bug'(jarayon 1-2) siqiladi. Kondensator-bug`latkichda V (jarayon 2-3) soviydi va kondensatsiyalanadi, undan so`ng drossel ventilda VII (jarayon3-4) drossellanadi.

Kaskad pastki shahobchasi ishchi moddasining kondensatsiya issiqligi yuqori shahobcha ishchi moddasi qabul qilinadi.

U kondensator bug`latkichda qaynaydi. Odatda bunday ishchi moddalar o`rta bosimda bo`ladi.

Kaskad yuqori shahobchasi ishchi moddasi bug`lari kompressor II da (jarayon 5-6) siqiladi, so`ng yuqori shahobcha kondensatori III ga (jarayon 6-7) uzatiladi, drossel ventil IV (jarayon7-8) drossellanadi va kondensator bug`latkichga keladi.

Shunday qilib mashinada ishchi modda kaskad pastki shahobchasida 1-2-3-4 siklni bajaradi, mashinaning yuqori shahobchasida 5-6-7-8 siklni va bu mashinalar kondensator bug`latkich bilan bog`langan.

Qoidaga ko`ra kaskadning pastki shahobchasida ishchi modda R13 bo`lib, mashina to`xtagan vaqtda hatorat uning hamma qismlarida atrof muhit harorati bilan tenglashadi.

Mashinaning hamma elementlarida bosim ortadi. (harorat 25°S da R13 to`yingan bug`lari bosimi 3,62 MPa tashkil qiladi).

Sovitish mashinasida bosimni juda ortib ketishi saqlash uchun kaskad pastki shahobchasi sistemasiga kengayuvchi idish VIII ulanadi, bu mashina to`xtagan hamma elementlardagi bosim hisoblangan qiymat chegarasidan oshmasligini taminlaydi.

Kondensatorda isparitelda oxirgi haroratlar farqi (5-10°S) bo`lganda kaskad mashinasini sovitish koeffisenti ikki bosqichga nisbatan doim past bo`ladi, chunki issiqlik almashinish jarayoni bu paytda qaytmas yoqotuvlarga olib keladi.

Xaqiqiy sikllarda kaskad mashinalari ikki bosqichliga (ayrim holda uch bosqichliga) nisbatan afzal, bu yuqori bosim ishchi moddalarida ishlash afzalliklari quyidagilardan iborat.

Ikki bosqichga nisbatan kompressorni nazariy hajmi kaskad mashinada kichik, chunki so`rilayotgan bug`ning solishtirma hajmi kichik bo`ladi.

- ❖ So`rish bosimi qiyatlari katta bo`lganda (qaynash harorati  $-80^{\circ}\text{S}$  da R13 qaynash bosimi  $R_o=0,112 \text{ MPa}$ , R22 da  $R_o= 0,0105 \text{ MPa}$ ) klapanlarda quvvatni nisbiy sarfi kamroq bo`ladi.
- ❖ Kompressorni pastki bosqichiga nisbatan kompressorni nazariy hajmi  $V_T$  kaskad pastki shahobchasida kam, shuning uchun kompressorlarni ishqalanish quvvati kaskad mashinada ikki bosqichlidan kam bo`ladi.
- ❖ Bir xil haroratlar diapazonida bosimlar nisbati kaskad mashinalarni ishchi moddalarida kam, masalan  $t_m= -40^{\circ}\text{C}$  va  $T_o= -80\text{S}$  da bosimlar nisbati R22 uchun  $0,1076/0,0105=16,8$ , R13 uchun  $0,617/0,112=5,5$  teng bo`ladi.
- ❖ Kaskad mashinalarida bosimi absolyut qiyatlari katta, bosimlar nisbati kichik bo`lganligi uchun energetik va hajmi koefisientlari kompressorni kaskad sovitish mashinasini pastki shahobchasi yuqori, ikki bosqichli sovitish mashinasi pastki bosqichi kompressoriga nisbatan.
- ❖ Kaskad sovitish mashinalarida yuqori bosim moddalaridan foydalanish, ikki bosqichliga nisbatan ancha past haroratlar olish mumkin.

Kaskad sovitish mashinasini hisobi.

Quyi pog`ona hisobi: R22 uchun.

1). Solishtirma massaviy suyuqlik unumdarligi

$$q_0 = i_1 - i_4 \frac{kg}{kg}$$

2). Kompressorning solishtirma siqish ishi

$$l = i_2 - i_1 \frac{kg}{kg}$$

3). Solishtirma kondensatsiya issiqligi

$$q_k = i_2 - i_3 \frac{kg}{kg}$$

4). Sovutish agentining massaviy sarfi

$$G_a = \frac{Q_0}{q_0} \frac{kg}{sek}$$

5). Qurilma balansini tekshiramiz

$$q_k = l_b + q_0 \frac{kg}{kg}$$

6). Kompressorning nazariy quvvati

$$N_n = G_a \times l \text{ kvt}$$

7). Mexanik quvvat

$$N_{mex} = \frac{N_i}{n_{mex}} \text{ kvt}$$

8). Kompressorning indikator quvvati

$$N_i = \frac{N_{naz}}{n_i} \text{ kvt}$$

9). Elektr quvvati

$$N_{e_1} = \frac{N_e}{n_i} \text{ kvt}$$

10). Kondensatorning issiqlik yuklamasi

$$Q_k = G_a \times q_k \text{ kvt}$$

11). Sovutish koefitientini aniqlash

$$\varepsilon = \frac{Q_0}{N_{e_1}}$$

Yuqori pog'ona hisobi R21 uchun.

12). Solishtirma massaviy suyuqlik unumdorligi

$$q'_0 = i'_1 - i'_4 \frac{kj}{kg}$$

13). Kompressorning solishtirma siqish ishi

$$l_x = i'_2 - i'_1 \frac{kj}{kg}$$

14). Solishtirma kondensatsiya issiqligi

$$q'_k = i'_2 - i'_1 \frac{kj}{kg}$$

15). Kompressorning balans tekshiruvi

$$q'_k = q'_0 + l_x \frac{kj}{kg}$$

16). Sovutish agentining massaviy sarfi

$$G'_a = \frac{Q'_0}{q'_0} \frac{kg}{sek}$$

17). Kompressorning nazariy quvvati

$$N'_{naz} = G'_a \times l_x \text{ kvt}$$

18). Kompressorning indicator quvvati

$$N'_i = \frac{N'_{naz}}{n_i} \text{ kvt}$$

19). Mexanik quvvat

$$N'_{mex} = \frac{N'_i}{n_{mex}} \text{ kvt}$$

20). Elektr quvvat

$$N'_{el1} = \frac{N'_{ei}}{n_{el}} \text{ kvt}$$

21). Kondensatorning issiqlik yuklamasi

$$Q'_k = G'_a \times q'_k \text{ kvt}$$

22). Sovutish koefitsiyenti

$$\varepsilon' = \frac{Q'_0}{N'_{EL}}$$

**4-amaliy mashg'ulot. Yog'ni ekstraksiyalash texnologiyasidasovutish tizimining hisobi. Sovutish unumdorligini aniqlash, sovutish mashinasini tanlash.**

Loyihalash-hisoblash ishiga namuna:

**a) Sovutish sikli.**

Boshlangich ma'lumot:

$$t_0 = 0^{\circ}\text{S}; t_k = +45^{\circ}\text{S}; t_{sor} = +20^{\circ}\text{S}; R134a; V_k = 3,2\text{m}^3/\text{soat}.$$

1-jadval

Nº	t, °S	R, MPa	i, kJ/kg	v, m³/kg
1	0	0,308	552,9	
1'	20	0,308	565	
2	70	1,082	589	
3	45	1,082	444,6	
3'	33	1,082	432,5	
4	0	0,308	432,5	

$$1. q_0 = i_1 - i_4 = 552,9 - 432 = 120,4 \text{ kJ/kg}.$$

$$2. q_v = q_0 / v_1 qv = q_0 / V_1 = 120,4 / 0,063 = 1911,1 \text{ kJ/m}^3.$$

$$3. q_k = i_2 - i_3 = 589 - 444,6 = 144,4 \text{ kJ/m}^3.$$

$$4. Q_o = \lambda q_0 \cdot V_{km} = 0,75 \cdot 1911,1 \cdot 88,88 \cdot 10^{-5} = 1,274 \text{ kVt.}$$

$$5. G_a = Q_0 / q_0 = 1,274 / 120,4 = 0,0105 \text{ kg/s.}$$

$$6. l = i_2 - i_{1'} = 589 - 565 = 24 \text{ kJ/kg}.$$

$$7. N_{ad} = G_a \cdot l = 0,0105 \cdot 24 = 0,25 \text{ kVt.}$$

$$8. N_i = N_{ad} / \eta_i = 0.25 / 0.75 = 0.35 \text{ kVt.}$$

$$9. N_{mp} = P_{imm} \cdot V_{km} = 40 \cdot 10^3 \cdot 88,88 \cdot 10^{-5} = 35,55 \text{ Bm} = 0,0356 \text{ kVt.}$$

$$10. Ne = Ni + Ntr = 0,35 + 0,0356 = 0,385 \text{ kVt.}$$

$$11. N_{\varpi} = N_e / \eta_{\varpi} = 0,385 / 0.85 = 0.45 \text{ kVt.}$$

$$12. Q_k = Q_0 + N_i = 1.274 + 0.35 = 1.620 \text{ kVt.}$$

### b) Issiqlik nasosi sikli.

1. Issiqlik unumdorligi :  $Q_G$  -700 kVt.

2. Suv temperaturasi:  $t'_s = 25^\circ C$ .

3. Suv temperaturasi:  $t''_r = 65^\circ C$ .

4. R134a (GFU- 134a).

5.  $t_0 = 15^\circ S$ .

6.  $t_K = 70^\circ S$ .

N <sup>0</sup>	t, °C	P, MPa	i, kJ/kg	v, m <sup>3</sup> /kg
1	15	0,48	404	
1'	30	0,48	421	0,047
2	88	2,17	455	
3	70	2,17	305	
3'	60	2,17	288	
4	15	0,48	288	

$$q_0 = i_1 - i_4 = 404 - 288 = 116 \text{ kJ/kg}$$

$$l = i_2 - i'_1 = 455 - 421 = 34 \text{ kJ/kg} .$$

$$q_k = i_2 - i_3 = 455 - 305 = 150 \text{ kJ/kg} .$$


$$G_a = \frac{Q_T}{q_k} = \frac{700}{150} = 4067 \frac{kg}{sek} .$$


$$V_h = \frac{G_a v_1}{\lambda} = \frac{4,67 \cdot 0,047}{0,79} = 0,2776 \frac{m^3}{sec} .$$

$$N_{\varpi} = \frac{G_a l}{\eta_i \eta_{\text{max}} \eta_{\varpi}} = \frac{4,67 \cdot 34}{0,8 \cdot 0,9 \cdot 0,9} = 245 \text{ kVt} .$$

$$COP = \frac{Q_T}{N_{\varpi}} = \frac{700}{245} = 2,86 .$$

Hisoblarni 4 xil sovitish agenti (R22, R134a, R407C, R142)da amalga oshirib, natijalarini grafikda tasvirlaymiz:





## 5- amaliy mashg'ulot. Samarador issiqlik almashinish apparatlarini hisoblash va konstruksiyalash.

Kojux-trubali issiqlik almashinish qurilmasining diametri  $d = 25 \times 2$  mm li 13ta trubadan yasalgan. Kojuxning ichki diametri 273 mm. Qurilmada soatiga 10 t suv  $10^{\circ}\text{C}$  dan  $70^{\circ}\text{C}$  gacha isitilmoqda. Suv truba ichidan va trubalararo bo'shliqdan o'tayotgan paytidagi issiqlik berish koefitsiyenti topilsin.

### Yechish:

Hisoblash quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

- Ilavadagi 4-jadvaldan  $t_{\bar{y}p} = 40^{\circ}\text{C}$  da suvning fizik xarakteristikalari aniqlanadi:  
 $\rho_2 = 992 \text{ kg/m}^3$ ;  $c_2 = 4,18 \text{ kJ/kg}$ ;  $\lambda_2 = 0,634 \text{ Vt/m}\cdot\text{K}$ ;  $\mu = 657 \cdot 10^{-6} \text{ Pa}\cdot\text{s}$ ;  
Prandtl kriteriysi  $Pr = 4,31$ .
- Truba ichida oqayotgan suvning tezligi ushbu formula bo'yicha hisoblanadi:

$$w = \frac{4 \cdot G}{\pi \cdot d_{u4}^2 \cdot n \cdot 3600 \cdot \rho} = \frac{4 \cdot 10000}{3,14 \cdot 0,021^2 \cdot 13 \cdot 992 \cdot 3600} = 0,62 \text{ m/s}$$

- Reynolds kriteriysi (4.14) formuladan topiladi:

$$Re = \frac{0,62 \cdot 0,021 \cdot 992}{657 \cdot 10^{-6}} = 19658,8$$

4.  $Re = 10000$  bo‘lgani uchun,  $\varepsilon_1 = 1$  va  $(Pr/ Pr_{\text{D}}) = 1$  deb qabul qilib, Nusselt kriteriysining  $Nu$  qiymati (4.22) tenglama orqali aniqlanadi:

$$Nu = 0,021 \cdot 19568,8^{0,6} \cdot 4,31^{0,43} = 107,12$$

bunda issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$\alpha_2 = \frac{107,12 \cdot 0,634}{0,021} = 3234 \text{ Bm / m}^2 \cdot K$$

5. Suvning trubalararo bo‘shliqdagi tezligi (4.29) formuladan topiladi:

$$w = \frac{10000}{0,052 \cdot 992 \cdot 3600} = 0,054 \text{ m / c}$$

bu yerda  $S = 0,052 \text{ m}^2$  - trubalararo bo‘shliqning ko‘ndalang kesim yuzasi:

$$S = 0,785 \cdot (d_{uu}^2 - d_m^2)$$

$d_{uu}$  va  $d_m$  - trubaning ichki va tashqi diametrлari, m.

6. Trubalararo bo‘shliqning ekvivalent diametrini (4.21) formuladan topish mumkin:

$$d_e = \frac{4 \cdot 3,14 \cdot (0,273^2 - 13 \cdot 0,025^2)}{4 \cdot 3,14 \cdot (0,273^2 + 13 \cdot 0,025^2)} = 11 \text{ m / c}$$

7. Reynolds kriteriysi esa (4.14) formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$Re = \frac{0,054 \cdot 0,11 \cdot 992}{657 \cdot 10^{-6}} = 8967,7$$

8. Reynolds soni  $2300 < Re < 10000$  bo‘lgani uchun  $Nu$  qiymati (4.23) formula yordamida aniqlanadi:

$$Nu = 0,008 \cdot 968,7^{0,9} \cdot 4,31^{0,43} = 54,12$$

issiqlik berish koeffitsiyenti esa,

$$\alpha = \frac{54,12 \cdot 0,634}{0,0978} = 350,8 \text{ Bm / m}^2 \cdot K$$

9.  $\varepsilon_1 = 1$  va  $(Pr/ Pr_{\text{D}}) = 1$  inobatga olib, turbulent harakat rejimi uchun (4.22) va (4.23a) formulalar yordamida issiqlik berish koeffitsiyenti hisoblanadi.

$$Nu = 0,021 \cdot 8968,7^{0,8} \cdot 4,31^{0,43} = 57,1$$

$$\alpha_{2T} = 370,6 \cdot 0,975 = 361,3 \text{ Bm / m}^2 \cdot K$$

10. Agar  $Re = 8968,7$  bo‘lsa,  $\varepsilon_1 = 0,975$  (10-jadvalga qaralsin), unda o‘tish sohasi uchun issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagicha topiladi:

$$\alpha_{2T} = \frac{57,1 \cdot 0,634}{0,0978} = 370,6 \text{ Bm} / \text{m}^2 \cdot K$$

$\alpha_{2T}$  lar orasidagi farq 2,9% ni tashkil etadi.

## **6- amaliy mashg’ulot. Samarador kolonna apparatlarini hisoblash va konstruksiyalash.**

1 masala. Benzol 40% (mol) va toluoldan 6% (mol) tashkil topgan 60°S li suyuq aralashma uchun bug‘ fazasining muvozanat tarkibi hisoblansin. Aralashma Raul qonuni bilan xarakterlanadi. Atmosfera bosimi 760 mm.sim.ust. va temperatura 90°S da qaynaydigan, benzol va toluolning suyuq aralashmasining tarkibi aniqlansin.

Yechish:

11- rasmdan 60°S uchun benzol va toluolning to‘yingan bug‘larining bosimini topamiz: benzol uchun  $R_b=385$  mm.sim.ust. va toluol uchun parsial bosimlar ushbu formuladan aniqlanadi

$$R_b = R_b \cdot x_b = 385 \cdot 0,4 = 154 \text{ mm.sim.ust.}$$

$$R_T = R_T \cdot x_T = R_T \cdot (1 - x_b) = 150 \cdot (1 - 0,4) = 84 \text{ mm.sim.ust.}$$

Umumiy bosim esa,

$$P = r_b - r_T = 154 + 84 = 238 \text{ mm.sim.ust.}$$

Bug‘ fazasining tarkibi ushbu tenglama orqali aniqlanadi;

$$u_b = r_b / P \cdot 154/238 = 0,648$$

Demak, muvozanatdagi bug‘ tarkibida 64,8% (mol) benzol va 35,2% (mol) toluol bor.

Atmosfera bosimi 760 mm.sim.ust. va temperatura 90°S da qaynaydigan benzol va toluolning suyuq aralashmasining tarkibi aniqlash uchun ushbu tenglamani yozamiz:

$$P = R_b \cdot x_b + R_T \cdot x_T$$

yoki

$$760 = 1013 \cdot x_b + 408 (1 - x_b)$$

$$\text{undan } x_b = 58,3\%; \quad x_T = 41,7\%$$

Bu yerda: 1013 va 408 (mm.sim.ust.) – toza benzol va toluolning 90°S dagi to‘yingan bug‘larining bosimi.


### **7-amaliy mashg‘ulot. Samaradorlikni ifodalovchi kattaliklar. Bunday kattaliklarni tanlash va ishlatish.**

ToshdTU “Sovutish va kriogen texnikasi” kafedrasida issiqlik almashinish apparatlari samaradorligini baholash uchun eksergetik aralash kriteriy taklif qilingan, taklif qilingan kriteriy bilan issiqlik almashinish apparatlarini tahlil natijalari keltirilgan, silliq va samarador trubalardan yasalgan issiqlik almashinish apparatlariga ega sovutish mashinalari tahlil qilingan.

Issiqlik almashinish yuzasining nisbiy maydoni aralash eksergetik kriteriy bilan baholanishi mumkin:

$$f = \frac{F}{E''} \quad (2)$$

$f$  kriteriysi 1 J/s eksergiyaga mos keluvchi issiqlik almashinish yuzasi maydonini anglatadi.



**1-rasm. Nisbiy yuzani eksergetik temperatura funksiyasiga bog‘liqligi**

Issiqlik almashinish yuzasi nisbiy maydoni kriteriysidan  $f$  (2) da ko‘rsatilgan shaklda foydalanish noqulay, chunki issiqlik almashinish apparatlari loyihalanayotgan variantlari uchun  $F$  va  $E''$  noma’lum. Ma’lum matematik o‘rniga qo‘yishlardan so‘ng (2) formula amaliyotda qo‘llash uchun qulay ko‘rinishga keltirildi:


$$f = \frac{F}{Q \cdot \tau_e} = \frac{1}{\alpha \cdot \tau_e (T' - T'')} \quad (3).$$

1-rasmida  $f$  ni  $\tau_e$  ga bog'liqligi ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rindaniki, barcha issiqlik almashinish yuzalari uchun  $\tau_e$  ni ortishi  $f$  ni o'sishiga olib keladi. Bu atrof muhit temperaturasi kamayishi bilan birlik issiqlik almashinish yuzasi orqali kamroq eksjeriya miqdori o'tadi, issiqlik almashinish yuzasi yoki apparatining samaradorligi pasayadi. Tadqiq qilingan trubalar ichida halqasimon turbulizatorli (№2) va prujina qo'yimli trubalar nisbiy maydoni bir xil va eksjeretiik eng samaradordir. №2 truba biz tomondan tadqiq qilingan va past temperatura texnikasida ishlataliyapti. Plastina spiral qo'yimli truba (№3) termodinamik jihatdan eng samarasizdir. Uning uchun  $f$  ni qiymati silliq trubanikidan (№1) ham katta. Suvning kirishdagi temperaturasi ortishi bilan №3 truba uchun kriteriy qiymati kamayadi, №1 truba  $f$  qiymatlariga yaqinlashadi.

Shuni qayd qilish lozimki, samarador issiqlik almashinish yuzalarining ko'rileyotgan barcha variantlarini qo'llashda gidravlik qarshiliklarni silliq yuzadagi qarshiliklarga nisbatan ortishi kuzatiladi. Ammo, umumiy yo'qotuvlarda gidravlik qarshiliklar tufayli eksjeretik yo'qotuvlarning ulushi qaytmas issiqlik almashinish tufayli eksjeretik yo'qotuvlarga nisbatan nisbatan ancha kam. Shunday qilib, issiqlik almashinish apparatlarini loyihalashda issiqlik berishni hisoblash formulalariga ega bo'lish yetarli. Issiqlik almashinish apparatlari ishlashi uchun xarakterli atrof muhit va issiqlik tashuvchi temperaturalari qiymatalirini berib termodinamik samarador issiqlik almashinish yuzasini tanlash mumkin. Taklif etilgan samaradorlik kriterysi eksjeriya tushunchasiga asoslanadi. Kriteriydan ishlayotgan issiqlik almashinish apparatlari samaradorligini aniqlashda va termodinamik samarador apparatlarni tanlashda foydalanish qulay.

To'rtta trubalar varianti tadqiq qilindi: silliq va diafragma nisbiy balandligi  $d/D=0,876; 0,91; 0,945$  bo'lgan nakatkali trubalar. Barcha trubalarning turbulizatorlari nisbiy qadami bir xil va  $t/D=0,4$  ga teng. Shuni qayd qilish kerakki, ko'ndalang halqasimon ariqchalar sovutish agentlarining qaynashida issiqlik

almashinishga ta'sir qilmadi, chunki bug'latgichlarning ish rejimi puffakli qaynash rejimiga mos edi. Ko'ndalang halqasimon ariqcha o'yilgan trubalar faqat plenkali qaynash rejimida issiqlik almashinishga ijobiy ta'sir etadi. Sovutiluvchi muhit tomonidan issiqlik berish koeffitsiyentini oshirish hisobiga issiqlik uzatishni jadallashtirishga erishildi. Sovutiluvchi muhit sifatida 23% li xlor natriyning suvdagi eritmasi ishlatildi. Sovuqlik elituvchining nasosini markasi X14-22M. Sovutish agentining qaynash temperaturasi diapazoni  $-10^{\circ}$  dan  $-27^{\circ}$  S gacha. Namokobning kirish va chiqishdagi temperaturasi mos ravishda  $0^{\circ}$  dan  $-17^{\circ}$  S gacha va  $-5^{\circ}$  dan  $-22^{\circ}$  S gacha. Nisbiy sovutish unumдорligi  $7000 \text{ Vt/m}^2$ . Tadqiq qilingan trubali bug'latgichning samaradorligi eksperimental usul bilan baholandi.



**2-rasm.  $d/D=0,876$  truba uchun  $\eta = f(\theta, t_o)$  bog'liqlik**

Eksergetik tahlil natijalari ko'rsatadiki,  $\theta$  yoki  $|t_o - t_{s2}|$  ning barcha qiymatlari uchun silliq trubalarda eksergiya umumiyo yo'qotuvarining katta qismini temperaturalar farqi tufayli yo'qotuvarlar tashkil qiladi va gidravlik qarshiliklar hamda atrof muhit bilan issiqlik almashinish tufayli eksergiya

yo‘qotuvarini e’tiborga olmasa bo‘ladi. Barcha nakatkali trubalar uchun  $D_p$  yo‘qotuvar ulushi katta va ularni faqat temperatura  $-20^{\circ}\text{S}$  dan past bo‘lganida e’tiborga olmaslik mumkin. Qaynash temperaturasi pasayishi bilan  $\Sigma D$  o‘zgarmaydi,  $D_p$  bir oz kamayadi. Masalan,  $\theta=6,8^{\circ}\text{S}$ ,  $t_o=-10^{\circ}\text{S}$  da silliq truba uchun  $\Sigma D = 25,22 \text{ Dj/s}$  dan  $D_p$  ning ulushi  $\sim 4,3\%$  va  $d/D=0,91$  li truba uchun  $\Sigma D = 20,19 \text{ Dj/s}$  dan  $D_p \sim 13\%$ .  $\theta=6,8^{\circ}\text{S}$ ,  $t_o=-21^{\circ}\text{S}$  da esa silliq truba uchun  $\Sigma D = 25,881 \text{ Dj/s}$  dan  $D_p \sim 2,3\%$  va nakatkali uchun  $\Sigma D = 20,025 \text{ Dj/s}$  dan  $D_p \sim 6,6\%$ . Bug‘latgichning eksergetik FIK  $\theta$  (yoki  $|t_o - t_{s2}|$ ) va qaynash temperaturasi ortishi bilan kamayadi. 10-rasmdan ko‘rinadiki,  $\theta$  i  $t_o$  larning barcha qiymatlarida nakatkali trubalarning eksergetik FIK silliq trubalnikidan katta. Shunday qilib, tadqiq qilingan diafragma nisbiy balandligiga ega nakatka trubali bug‘latgichlarni qo‘llanilishi silliq truba qo‘llanilishiga nisbatan termodinamik jihatdan avzal. Diafragmalarning eng maqbul nisbiy balandligi 0,876.

Injenerlik hisob ishlarida ekserviya va uning yo‘qotuvlari amaliy ahamiyatga ega emas. Shuning uchun bug‘latgich va kondensatorlar uchun ularning og‘irlik, gabarit o‘lchamlarini e’tiborga oluvchi eksergetik FIK hisoblash tenglamasi olindi:

$$\eta_e = ((1,4 \ln(t_{s2}) - 10,2) \delta t + 48,4 \ln(t_{s2}) + 767,7) \cdot 10^{-3} \quad (4)$$

(4) formula quyidagi ish rejimida olindi  $t_{s2}=-5; -10; -16; -19; -22^{\circ}\text{C}$ ;  $\delta t=4,6; 5; 4,2; 5,4^{\circ}\text{C}$ ;  $\Delta t=5^{\circ}\text{C}$  va 8% maksimal xatolikka ega. (4) formulani boshqa tadqiqotchilar ishlari bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki,  $T_{os}$  dan past temperatura oblastida ishlovchi issiqlik almashinish apparatlari uchun (4) formula hisoblangan  $\eta_e$  bilan qoniqarli (12% gacha xatolik bilan) mos keladi.


Dissertatsiyada bir kaskadli sovutish mashinasining kondensator va kondensator-bug‘latgichidagi issiqlik almashinish jarayoni 1) sovutish agenti sifatida ammiak va uglevodorod gazlar noazeotrop aralashmasi; 2) issiqlik almashinish yuzasi sifatida ko‘ndalang halqasimon turbulizatolri trubalar ishlatilganida ko‘rib chiqilgan.

Hisob ishlari quyisi va yuqori tarmoqlarda mos ravishda R170, R13 va R290/R600a/R600, R717 sovutuvchi agent sifatida ishlatilganida bajarilgan. R170 – R290/R600a/R600 sistemada etan (R170) truba ichida kondensatsiyalanadi, noazeotrop propan-izobutan-butan (R290/R600a/R600) aralashmasi kondensator-bug‘latgichning trubalararo kengligida qaynaydi. R13 – R717 sistemada freon-13 (R13) trubalar ichida kondensatsiyalanadi, ammiak (R717) kondensator-bug‘latgichning trubalararo kengligida qaynaydi.

Kondensatsiyalanish temperaturalari quyisi tarmoqda -25; -20; -15; -10 °S, yuqori tarmoqda – 20; 25 °S, yuqori tarmoqdagi qaynash temperaturasi (qaynash oxiri) -30; -25; -20; -15 °S. Atrof-muhit temperaturasi  $t_{os}=20; 25$  °S.

Kaskad sovutish mashinalari yuqori tarmog‘ida sovutish agenti sifatida ammiak, propan-izobutan-butan aralashmasining ishlatilishi samradorlikning temperatura rejimiga turlicha bog‘liqlik xarakteriga ega. Kondensator-bug‘latgichda issiqlik almashinish yuzasi sifatida ko‘ndalang halqasimon turbulizatorli trubalarni tadqiq qilingan rejim diapazonida ishlatilishi sezilarli samara bermaydi. Ammiak, propan-izobutan-butan aralashmasi kondensatsiyalanganida kondensatorning energetik samaradorligi sezilarli ortadi.

3-rasmida tasvirlangan egri chiziqlar tadqiq qilingan mashinalar uchun eksergetik FIK ni sovutish agentining qaynash temperurasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Egri chiziqlar kaskad sovutish mashinalarining energetik samaradorligini qaynash temperurasining tadqiq qilingan diapazonida  $213 < T_o < 233$  K xarakterlaydi. Uzluksiz chiziq silliq trubalar bilan jihozlangan issiqlik almashinish apparatli sovutish mashinasiga tegishli; shtrix chiziq – №4 trubadan iborat bug‘latgichli mashinaga; shtrixpunktir chiziq №3 trubadan iborat kondensatorli mashinani xarakterlaydi; punktir chiziq – kondensator-bug‘latgichida samarador trubalar o‘rnatilgan mashinani ifodalaydi.



**3-rasm. Tadqiq qilingan mashinalar eksnergetik FIK sovutish agenti qaynash temperaturasiga bog‘liqligi**

Kondensatorida №3 truba va bug‘latgichida №4 truba bo‘lgan mashinalar energetik xarakteristikalari bo‘yicha eng yaxshi bo‘lib, ularning FIK  $T_o = 213$  K da mos ravishda  $\eta_e = 0,60$  va 0,59. Nakatkali trubalarni kondensator-bug‘latgichda qo‘llanilishi sovutish mashinasining samaradorligiga amalda ta’sir etmaydi. Mashinalarning maksimal FIK  $T_o < 213$  K da erishiladi. 213 K dan yuqori qaynash temperaturalarida FIK ning keskin kamayishi kuzatiladi. Ko‘rilayotgan  $T_o$  diapazonida laboratoriya kaskad mashinalari ular uchun nomaqbol ish rejimida ishlagan. Maksimal FIK  $T_o > 213$  K da erishilishi mumkin.

## V. KEYSALAR BANKI

### TOPSHIRIQ №2

Diametri 38x3 mm li turbadan soatiga G tonna va temperaturasi  $t^0\text{C}$  bolgan N suyuqlik oqib o’tmoqda. Suyuqliknинг oqim rejimi va o’rtacha harakat tezligini aniqlang.

Para-metr	O’lchov birligi	Shifirning oxirgi raqami bo‘yicha variantolar									
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	0

G	T	0.54	0.9	1.08	1.8	3.6	1.44	1.08	0.72	0.36	0.18
t	°C	20	25	30	35	40	45	50	55	60	70
N	Paxta yog'i, vino, sut, piva, etil spirit, qand qiyomi, neft, benzin, mazut, HNO <sub>3</sub> , H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> , simob, HCl, glitserin, toltol.										

### TOPSHIRIQ №3

Suvni uzatish uchun mo'ljallangan markazdan qochma tipidagi nasos quydagi texnik harakteristikalarga ega:  $Q_1 = 45 \text{ m}^3/\text{soat}$ ;  $H_1 = 36 \text{ m}$ ;  $N_1 = 38 \text{ kVt}$ ;  $n_1 = 760 \text{ ayl / min}$ . Agar ushbu nasosning aylanishlar soni  $n_2$  ga o'zgartirilsa, uning ish unimdonligi, napori va quvvati qanchaga ortadi? Nasosning f.i.k. ham hisoblab chiqilsin.

Para-metr	O'lchov birligi	Shifirning oxirgi raqami bo'yicha variantolar									
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
$N_2$	Ayl/min	1400	1440	2880	3600	2500	2900	1200	1260	3200	960

### TOPSHIRIQ №9

Dastlabki fil`rlash jarayonida  $1 \text{ m}^2$  fil`rdan olingan fil`trat miqdori, fil`rlash boshlangandan  $\tau_1$  minutdan so'ng  $V_1$  hajmda,  $\tau_2$  minutdan keyin esa  $V_2$  hajmda fil`trat olinadi. Fil`tr yuzasi  $1 \text{ m}^2$  bo'lsa, V miqdordagi suyuqlikni fil`rlashga qancha vaqt zarur bo'ladi.

Para-metr	O'lchov birligi	Shifirning oxirgi raqami bo'yicha variantolar									
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
$\tau_1$	min	2	4	20	15	6	16	12	18	14	8
$V_1$	dm <sup>3</sup>	1	2	8	5	3	8	6	9	7	4
$\tau_2$	min	15	25	100	50	30	80	60	100	90	55
$V_2$	dm <sup>3</sup>	3	6	24	15	10	20	18	27	21	12
V	dm <sup>3</sup>	10	20	100	50	30	80	60	90	70	40

### TOPSHIRIQ №11

Agarda, devorning usti 3mm qalinlikda X material bilan qoplangan bo'lsa, diametri D mm li U materialdan yasalgan devorning termik qarshiligi necha barobar ortadi?

Para-metr	O'lchov birligi	Shifirning oxirgi raqami bo'yicha variantolar									
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
$\delta$	mm	0.1	0.3	0.2	0.5	1.0	0.6	0.8	1.1	1.5	1.4
D	mm	25x2	38x3	20x2	14x1	76x4	32x2	57x3	20x2	14x1	108x5
U	-	Al	Cи	Ct45	Bron	Ag	Al	Choyan	Ti	Cи	Latun
X		Asbest, emal, torfplita,sovokit, penoplast, viniplast, ftoroplast, faolit, po'kak									

## VI. GLOSSARY

Fanlarni rivojlantirish	Fan mazmunini ilm-texnika sohasidagi yangiliklar bilan sun'iy fanlar paydo bo'lishiga yo'l qo'yilmagan holda to'ldirish, boyitish.
Ishlab chiqarish muammolari	Sanoat korxonalarining fan-texnika, mehnatni tashkil etish bilan bog'liq muammolar.
O'quv jarayonini tashkil qilish	O'quv yurtida o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ta'lim-tarbiya ishlarini meyoriy xujjalas asosida tashkil qilish.
sintetik kauchuk	Sintetik elastomer, elastiklik, suv o'tkazmaslik va elektroizolyatsion xossalari bilan xarakterlanib, undan vulkazizatsiya usuli bilan rezina va ebonitlar olinadi.
uksus kislotasi	Ikkinchi nomi – etan kislotasi. $\text{CH}_3\text{COOH}$ organik birikma, kuchsiz karbon kislotasi. Uksus kislotasining tuz va murakkab efirlari atsetatlar deb yuritiladi.
deparafinlash	Neftning kerosin-gazoyl va moy fraksiyalaridan normal parafinli uglevodorodlarni ajratish jarayoni.
kimyo sanoati	Uglevodorod, mineral va boshqa xom-ashyodan kimyoviy qayta ishlash bilan mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmogi.
past bosim qurilmalari	Kompressorda havoning siqilish bosimi 0,5 – 0,6 MPa bo'lib, unumdorligi eng katta qurilmalardir. Asosan gazsimon mahsulotlar olinadi, lekin qayta ishlanuvchi havoning 1,5% gacha suyuq holdagi mahsulot olinishi ham mumkin.
kriptonksenon aralashmasi	Hajmiy ulushi 99,5/0,2 bo'lgan, havoni past temperaturada rektifikatsiyalash bilan olinuvchi aralashma.
rektifikatsion kolonna	Rektifikatsiya jarayoni amalga oshiriluvchi, balandligi diametriga (yoki eniga) nisbatan ancha katta bo'lgan apparat.
sovuv puflash	Regenerativ issiqlik almashinish apparatlarida issiq havodan (to'g'ri oqim) kondensatsiyalangan namlik sovuq – teskari oqim bilan olib chiqiladi va "sovuv puflash" rejimi deb ataladi.
flegma	Rektifikatsiya jarayonida yengil uchuvchan komponent kondensatsiyalangandan so'ng hosil bo'lgan suyuqlik (distillyat)ning rektifikatsion kolonnaga qaytarib beriladigan bir qismi.
havo ajratish	Atmosfera havosidan sanoat gazlarini (kislorod,

qurilmalari	azot, argon va boshqalar) ajratuvchi qurilmalar.
Uch fazali mavhum qaynash qatlami	Suv, havo va sabzavot po'stlog'i aralashmasi (uch faza aralashmasi) ning mavhum qaynash qatlami
shakl faktori	Meva, sabzavot sirt yuzasini aniqlashdagi kattalik
gaz va suyuqlik nisbat	Mavhum qaynash qatlami jarayonini yuzaga keltirishda gaz va suyuq fazalar miqdorlari ma'lum nisbatda bo'ladi. Bu nisbatdan farqli qiymatlarda mavhum qaynash kuzatilmasligi mumkin.
«meva-po'st» aralashmasi	Meva, sabzavotlarni po'stloqdan tozalashdagi mag'iz va ajralgan po'stloq aralashmasi
adgeziya kuchi	Adgeziya yoki ilashish mustahkamligi – tutashtirilgan turli xildagi ikki qattiq jism yoki suyuqlik (faza) yuzalari orasidagi ilashish mustahkamligi.

## **VII. Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yusupbekov N.R., Nurmuxamedov X.S., Zokirov S. G. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. – T.: Sharq. 2015.-848 b.
2. Бахронов X.Ш. Повышение эффективности выпаривания кристаллизирующихся растворов с использованием псевдоожженного слоя. Атореф. диссер. докт. технич. наук. Навои.: ТХТИ. 2009. 35 с.
3. Закиров С.Г., Каримов К.Ф. Эксергетический анализ двухступенчатых, каскадных холодильных установок и их теплообменных аппаратов. Методическое пособие по практическим занятиям (для магистров специальности 5А520711 «Машины и агрегаты холодильной и криогенной техники, систем кондиционирования»). Т.: ТашГТУ. 2007. – 28 с.
4. Абдурахимова А.У. Разработка эффективного аппарата для разделения смеси твердое тело-твердое тело в трехфазном псевдоожженном слое. Атореф. диссер. докт. филос. по технич. наук. Т.: ТХТИ. 2018. 41 с.
5. Каримов К.Ф. Совершенствование теплообменных аппаратов и машин холодильной техники. Диссер. докт. технич. наук. Т.: ТашГТУ. 2016. – 228 с.
6. Закиров С.Г., Каримов К.Ф. Эксергетический расчет двухступенчатых, каскадных холодильных установок и их теплообменных аппаратов. Методическое пособие. Lambert Academic Publishing, Russia. 2020. 49 с.
7. Буткевич И.К. Криогенные установки и системы. – М: МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2008. – 151 с.